

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

J.S. MUXTOROV, B.F. ALIMOV, S.B. XO‘JAQULOV

TERRORIZM VA EKSTREMIZMGA QARSHI KURASH
TAKTIKA VA METODIKASI

(Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati
mutaxassisligi uchun)

MA‘RUZALAR KURSI

TOSHKENT – 2016

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining
Tahririyat-noshirlik hay‘atida ma’qullangan*

M a s ’ u l m u h a r r i r :

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi boshlig‘i,
general-mayor **Sh.T. Ikramov**

T a q r i z c h i l a r :

O‘zbekiston Respublikasi IIV Huquqbuzarliklarning oldini olish bosh
boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik **B. Sultonov**;
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **B. Zakirov**

**M – 93 Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash taktika va
metodikasi (Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati
mutaxassisligi uchun):** Ma’ruzalar kursi / J.S. Muxtorov,
B.F. Alimov, S.B. Xo‘jaqulov. Mas’ul muharrir Sh.T. Ikramov. –
T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 91 b.

Ushbu ma’ruzalar kursida terrorizm va ekstremizmning ijtimoiy xavfi va bugungi holati, sabab va sharoitlari, ularni aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish, uning oldini olishda profilaktika xizmatlari tomonidan umumiy, yakka tartibdagi, maxsus va viktimologik profilaktikaning chora-tadbirlarini amalga oshirish, shuningdek profilaktika xizmatining ichki ishlar organlari boshqa sohaviy xizmati, davlat organlari va jamoat tuzilmalari hamda fuqarolar bilan hamkorligini tashkil etishning zamonaviy usul va shakllarini qo‘llashning metodlariga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi «huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati» mutaxassisliklari yo‘nalishida ta’lim olayotgan tinglovchilariga, ichki ishlar organlari tizimi amaliyot xodimlariga, shuningdek ushbu sohada ilmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilarga mo‘ljallangan.

BBK 67.99(5U)8.9ya73

© O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.

SO‘Z BOSHI

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz tarixan qisqa bir davrni bosib o‘tish bilan birga ulkan marralarni ham qo‘lga kiritdi. Buning natijasida O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘zining o‘rni va nufuziga ega bo‘ldi. Ammo ushbu erishilgan yutuqlar bilan chegaralanib qolmasdan, yangi yutuqlar sari intilish, mamlakatimizni yanada rivojlantirish, uning mustaqilligini yanada mustahkamlash, fuqarolarimizning tinch va osuda farovon hayotini ta‘minlash yo‘lida intilib yashash eng muhim vazifalarimizdan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida bu haqda quyidagicha fikr bildirgan: «Bu yo‘lda biz duch kelishimiz mumkin bo‘lgan shunday bir xavf borki, u ham bo‘lsa, avvalambor, erishilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lib, xotirjamlik kayfiyatiga berilish, real voqelikdan uzilib qolish xavfidir»¹.

Bugungi kunda Yaqin sharq mamlakatlari yoki qo‘shni Afg‘oniston, Suriya, Ukraina mamlakatlarida sodir bo‘layotgan qonli urushlar, qirg‘in-barotlarni ko‘rib xulosa chiqargan holda mana shu buyuk zaminimizni har qanday tashqi kuchlardan asrashga doimo tayyor turishimiz, tinch va osoyishta hayotimizning qadriga yetib yashashimiz lozimligini ko‘rsatib turibdi. Fuqarolarimizni, ayniqsa yoshlar va voyaga yetmaganlarni turli yot g‘oyalar, tuban «Ommaviy madaniyat xuruj»lari hamda eng xavfli bo‘lgan diniy-ekstremistik g‘oyalardan asrash o‘ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan turib diniy ekstremizm va terrorizm xalqaro miqyosda nihoyatda tomir otib borayotganligi, unga qarshi keskin kurash olib borish lozimligini ta‘kidlagan edi.

Ammo, afsuski, jahon hamjamiyati mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning BMTda so‘zlagan nutqida (1993-y.), YEXHTning

¹ *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. –Т., 2010. – В. 56

Istambul sammitida (1999-y.)¹ va Shanxay sammitida (2001-y.) davlat rahbarlari bilan uchrashuvlarida diniy ekstremizm oqibatida kelib chiquvchi terrorizmning manbalari, bazalari, qurol-yarog‘ keltirish yo‘llari, ta‘minot usullari, narkotiklar tarqatish so‘qmoqlaridan mahrum qilish va ularni bartaraf etish uchun «Terrorchilikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro markaz» tuzish haqidagi amaliy takliflariga o‘z vaqtida yetarli e‘tibor bermadi. Agar bunday markaz o‘z vaqtida tashkil etilib, dunyo hamjamiyati birlashib, terrorizmga qarshi siyosiy, diplomatik, moliyaviy, iqtisodiy, gumanitar, g‘oyaviy, harbiy choralarni va xalqaro huquq doirasidagi boshqa har qanday tadbirlarni amalga oshirganlarida edi, jahonda va O‘zbekistonda ro‘y bergan mash‘um fojialar sodir etilmagan bo‘lardi.

Biz bugungi kunda murakkab zamonda yashamoqdamiz. So‘nggi paytlarda butun dunyo mamlakatlarini diniy ekstremizm va terrorizm tashvishga solib kelmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida davom etayotgan mahalliy urushlar, harbiy qarama-qarshilik va mojarolar, terrorchilik xurujlari xalqaro xavfsizlikka tahdid solmoqda².

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Hozirgi murakkab va tahlikali zamonda, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkobiznes kabi balo-qazolar insoniyat hayotiga tahdid solib turgan bir sharoitda men o‘z uyimiz, o‘z muqaddas yurtimizni o‘zimiz asraylik, o‘zimiz himoya qilaylik, degan da‘vat har bir yurtdoshimizni doimo hushyorlik va ogohlikka chorlab turishini istar edim»³, deb terrorizm va ekstremizmning ijtimoiy xavfliligini va unga qarshi barcha kuchlarni birlashtirgan holda kurashish lozimligini ko‘rsatib bergan.

Shu boisdan «Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash taktika va metodikasi» kursini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, bugungi kunda terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarning yangi turlarining paydo bo‘layotganligi, globallasuvi, transmilliy ahamiyatga egaligi, O‘zbekistonga qo‘shni chegaradosh bo‘lgan, jumladan Afg‘oniston, Tojikiston kabi bir qancha davlatlarda terroristik va ekstremistik tashkilotlarning ochiq oydin faoliyat yuritayotganligi, terrorizm va ekstremizm-

¹ *Каримов И.А.* Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз.– Т., 2000. – В.83–86.

² *Каримов И.А.* Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг энг олий мақсадимиз. –Т., 2009. – В. 66.

³ *Каримов И.А.* Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13.– Т., 2005. – В.448.

ning asosiy moliyaviy manbai bo'lgan narkobiznesning kuchayib borayotganligi uning dolzarbligini oshiradi hamda ichki ishlar organlarining bo'lajak kadrlarini terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish va uning profilaktikasi bo'yicha maxsus bilimlarni talab etadi.

Ushbu ma'ruzalar kursida terrorizm va ekstremizmning huquqiy asoslari, uning sabab va sharoitlari hamda bartaraf etish choralari, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining chora-tadbirlari, terrorizm va ekstremizmining profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishda huquqbuzarliklarning oldini olish xizmatlari, shuningdek profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari, davlat organlari, sohaviy xizmatlar va jamoat tuzilmalari bilan hamkorligi kabi masalalar yoritilgan.

Ma'ruzalar kursi O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi «huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati» mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan tinglovchilarda kelgusidagi amaliy faoliyatlarida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash, uning profilaktikasi bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda hamkorlikdagi ishlarni tashkil etishga doir zaruriy bilim va ko'nikmalarni shakllantiruvchi asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

1-mavzu. **TERRORIZM VA EKSTREMIZMNING IJTIMOY XAVFI VA BUGUNGI HOLATI**

1-§. Terrorizm va diniy ekstremizmning ijtimoiy xavfi.

2-§. Terrorizm va diniy ekstremizmning bugungi holati.

1-§. Terrorizm va ekstremizmning ijtimoiy xavfi

Kishilik jamiyati rivojining hozirgi bosqichida terrorizm, jumladan, diniy-siyosiy mohiyatga ega ekstremizm va terrorizmning globallashuvi, ularning tobora xalqaro miqyosdagi voqelikka aylanib borayotgani dunyo hamjamiyatining mazkur muammoga bo'lgan e'tiborini yanada oshirmoqda.

Mazkur ijtimoiy salbiy illatning mohiyati va uning sabab hamda sharoitlarini o'rganishdan avval uning tushunchasi haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. «Terrorizm» tushunchasi ayrim ilmiy va yuridik adabiyotlarda quyidagicha ta'rif berilgan.

Terrorizm – bu siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'qotish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima va tartibsizliklarni keltirib chiqarish maqsadidagi zo'rvonlik harakatlari (ta'qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va boshq.)¹.

Terrorizm siyosiy maqsadda amalga oshiriladigan, asoslangan zo'rvonlikdir², Terrorizm – bu «qo'rqitish», majburlash yoki cho'chitish vositasida siyosiy maqsadlarga erishish uchun kuch ishlatish bilan tahdid solish yoki uni ishga solish».

Terrorizm, terrorchilik – zo'rlik va jaholat mafkurasi, terror bilan amalga oshiriladigan siyosiy harakat. Terrorizm bir necha asrlar oldin shakllangan, geografik jihatdan barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrashi mumkin bo'lgan murakkab fenomendir³.

Ta'kidlash kerakki, terrorizmning har qanday ko'rinishi, o'z oldiga qanday maqsadni qo'ygan bo'lmasin va qanday ijtimoiy-siyosiy muammolar bilan bog'liq bo'lmasin, uning tub mohiyati buzg'unchilik g'oyasiga asoslanib, begunoh odamlarning qurbon bo'lishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, mazkur ijtimoiy-huquqiy salbiy hodisa jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni izdan

¹ Ўзбек миллий энциклопедияси. Т.8. – Т., 2004. – В.404.

² http://worldspol.socio.msu.ru/programmi/Mewdunarodnyj_terroriz1.doc

³ Фалсафа: Қомусий луғат. –Т., 2004. – В.398.

chiqarish, odamlarni qo‘rqitish, dahshatga solish, kuch ishlatish, zo‘ravonlik qilish, odamlarni qirib tashlash, qo‘rqitish orqali pul undirish va boshqa ko‘plab maqsadlarda sodir etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi 2000-yil 15-dekabr qonunida terrorizmga quyidagicha ta’rif berilgan: «Terrorizm» – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rluk, zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar¹.

Bugungi kun barchadan ushbu salbiy illatlarga qarshi kurashni talab etish bilan bir qatorda ogohlikni ham taqozo etadi. Zero, jamiyatda xavfsizlikni ta’minlash, insonning huquq va erkinliklari, barcha mulk shakllari, davlat suvereniteti hamda konstitutsiyaviy tuzumni har qanday jinoiy tajovuzlardan himoya qilish uyushgan jinoiy tuzilmalarning shakllanish jarayoni va faoliyati ustidan uzluksiz va samarali ijtimoiy-huquqiy nazoratni talab qiladi².

Terrorizm ijtimoiy-salbiy hodisa sifatida jamiyat tinchligining buzilishiga, notinchlikni kelib chiqishiga, insonlarning bevaqt o‘limiga, davlat va huquqning rivojiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Shuni alohida e’tirof etish kerakki, terrorizm o‘ta murakkab jinoiy hodisa bo‘lganligi sabab, deyarli barcha davlatlarning qonunlari bilan himoyalangan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda biron-bir davlat yo‘qki diniy ekstremizm yoki terrorizmning salbiy ofati va uning ta’siridan jabrlanmagan bo‘lsa. Ushbu illatning

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – №1–2. – 15-м.

² *Исмаилов И. Уюшган жиноий тузилмалар фаолиятининг олдини олишни назарий ва ташкилий-ҳуқуқий таъминлаш: Юрид. фан. д-ри. ... дис. Автореф. – Т., 2006. – В.3.*

ta'sir darajasi so'nggi paytlarda tobora kuchayib borayotganligi bevosita mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «... biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz» degan fikrini eslash joiz.

Diniy ekstremizm diniy fundamentalizmning bir ko'rinishidir, ya'ni diniy fundamentalizm aqidaparastlikka ko'r-ko'rona ishonishga, e'tiqodga asoslangan dalilsiz, isbotsiz qoidaga, ishonch bilan aytilgan fikrga yoki qattiq ishonilgan mulohazaga asoslanadi. Shu sababli aqidaparast odamlarga aqidalarga ko'r-ko'rona ishonuvchi qabul qilingan qonun-qoida, fikr-mulohaza, aqidadir. Shuning uchun ham aqidaparast dogmalarga, aqidalarga asoslangan tafakkur, eskirgan, qotib qolgan nazariy qonun-qoidalarga tanqidiy ko'z bilan qaramay, ko'r-ko'rona ishonadi va unga amal qiladi.

Diniy fundamentalizm-aqidaparastlik aqidaning o'zgarishini himoya qiladigan, vahiy va mo'jizalarning muqaddas kitoblaridagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so'zma-so'z talqinga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladigan istilohdir. Bundan kelib chiqadiki, fundamentalizmdan, ekstremizm kelib chiqadi.

«Ekstremizm» lotincha *extremis* so'zidan olingan bo'lib, ashaddiy, qat'iy nuqtai nazar va chora tarafdori, degan ma'noni bildiradi¹. Shundan ko'rinib turibdiki, diniy ekstremizm ham ijtimoiy hayotda yuz berayotgan jarayonlar ta'sirida vujudga keladi va uning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Diniy ekstremizm iborasi shu kunlarda tez-tez tilga olinadigan mavzulardan biriga aylandi. Shunday ekan, bu hodisalarning aniq ta'rifi mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida lo'nda qilib ifodalangan. Bu asarda Prezident fanatizm, ekstremizm, terrorizm kabi illatlarga ta'rif berarkan, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlariga alohida e'tibor qaratgan.

Bugungi kunda dunyoning turli hududlarida, xususan Yaqin sharq mintaqasida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М., 1981. – В. 442.

to'qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda kishilik jamiyati oldida bir qator kompleks vazifalarni hal etish dolzarb masala bo'lib turibdi.

Terrorizm va diniy ekstremizmning ijtimoiy xavfi yana bir xususiyati hech qanday urush bo'lmayotgan, tinchlik hukmronlik qilayotgan, jamiyatda demokratik institutlar faoliyat ko'rsatayotgan bir sharoitda muqobil usullarni atayin inkor etgan holda, siyosiy masalalarni zo'rlik yo'li bilan hal qilishga intilishda ko'rinadi. Bunday siyosiy masalalar o'z navbatida hududiy, etnik, diniy yoki boshqa shaklu shamoyil kasb etishi mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000–2006-yillar mobaynida dunyoning 112 mamlakatida 14 ming 934 ta terrorchilik amaliyoti sodir etilgan. Ularning mutlaq ko'pchiligi Yer yuzining turli mintaqalarida joylashgan, o'ziga xos etnik, diniy yoki boshqa shakldagi muammolar mavjudligi bilan ajralib turadigan Iroq (4606), Iordanning g'arbiy qirg'og'i (1927), Kolumbiya (1135), Ispaniya (732), Tailand (619), Afg'oniston (591), Hindiston (509), Pokiston (504), Turkiya (477), Isroil (463), Fransiya (446), Nepal (379), Rossiya (284), Gretsiya (230), Fillipin (213), Indoneziya (197), Shri-Lanka (131), Italiya (125) va Bangladesh (111) hududlarida amalga oshirilgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi¹.

Terrorizm va ekstremizmning ijtimoiy xavfini biz dunyoda sodir bo'layotgan terrorchilik va qo'poruvchilik harakatlarining raqamlarida ham ko'rishimiz mumkin, jumladan 2015-yilgi «Global terrorizm indeksi» keltirgan reyting ma'lumotlarga ko'ra, 2014-yilda dunyoning 93 mamlakatida terrorchilik harakatlari sodir etilgan bo'lib, buning natijasida 32659 nafar inson qurbon bo'lgan. Ta'kidlash lozimki, qurbon bo'lganlarning 78 % beshta davlat, ya'ni Afg'oniston, Iroq, Nigeriya, Pokiston va Suriya fuqarolari hisoblanadi. Terrorizm 53 milliard AQSH dollari miqdorida zarar ko'rilgan bo'lsa, dunyo bo'yicha davlatlar bir yilda terrorizmga qarshi kurashga 117 milliard AQSH dollari miqdorida mablag' sarflanmoqda. 2014-yilda 2013-yilga nisbatan terrorchilik harakatlari soni 80 fiozga ortgan hamda ularning natijasida qurbon bo'lganlarning soni 2000-yilga (3329 nafar) nisbatan 10 barobar (32 658 nafar)ni tashkil etgan. Keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, bugungi kunda diniy ekstremizm va terrorizm, ta'bir joiz bo'lsa, davr «vabosi»ga aylandi desak,

¹ <http://rambler.ru>. Evropa. chu. by.

mubolag'a bo'lmaydi va bular o'z navbatida terrorizm va ekstremizmning ijtimoiy xavfini ortib borayotganidan dalolatdir.

Shuningdek, terrorizm va ekstremizmning avj olishiga ayrim omillarning ham ta'siri mavjud, *birinchidan*, narkotik vositalar va psixotrop moddalar savdosi va kontrabandasining kuchayib borayotgani; *ikkinchidan*, terrorizmni moliyaviy mablag' bilan ta'minlaydigan guruhlarining ko'payib borayotgani; *uchinchidan*, terrorchi guruhlarining jinoyat sodir etish malakasining yildan yilga oshib borayotgani; *to'rtinchidan*, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlikning kengayib borayotgani; *beshinchidan*, terrorchi guruhlar o'zlarining xufyona faoliyatini turli ko'rinishdagi g'oya va mafkuralar bilan sodir etayotganligi va boshqalar.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko'proq uchragan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus, poyezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab tasodifiy kishilarning qurbon bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo'lganlardan ko'ra, uning guvohlariga qaratilgandir.

Shu bois ommaviy axborot vositalari terrorchilarning o'z maqsadlariga erishishlarida asosiy qurolga aylanib bormoqda. Kidnepping yoki garovga olish ham mohiyatan o'zgarib bormoqda. Avvallari garovga olishdan maqsad pul undirish bo'lgan bo'lsa, hozirda terrorchilar asosan xalqaro munosabatlar sohasida va mamlakatda beqarorlikni keltirib chiqarishga mo'ljallagan siyosiy maqsadlariga erishishni ko'zlaydilar. Shu bilan birga, bu jarayonning OAV orqali keng yoritilishi va omma ongida xavotirli aks-sado berishiga erishish orqali guruhning jamiyat oldida tanilishi ham hisobga olinadi. Bunday harakat zamirida, aslida terrorchilarning ojizligi namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Chunki jamiyatda ovoza bo'lishga intilish, odamlarda qo'rquv hissini uyg'otish yo'li bilan tashkilot o'zining bosh maqsadiga erishmoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham, ta'sir o'tkazish orqali xulqini modellashtirish va faolligini boshqarish mumkin bo'lgan ruhiy ojiz va qarashlarida sobitlik yo'q kimsalar ijrochi sifatida chiqadilar.

Ma'lumki, bugungi kunda terrorizm jinoyati butun jahon jamoatchiligini tashvishga solayotgan hodisalardan biri hisoblanmoqda. XXI asr – axborot asri, globallashuv davrida dunyo mamlakatlari oldida turgan

asosiy xavf – bu xalqaro terrorizmdir. Bugun biz jadal sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz¹.

Nega deganda hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzod bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas². Bugungi kunda insoniyat jamiyati dunyoning qo'poruvchilik, zo'ravonlik va shunga o'xshash turli xil tahdidlar dunyo hamjamiyatiga juda katta xavf tug'dirmoqda.

Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarning sabab va sharoitlarini o'rganish ushbu jinoyatlarga qarshi samarali kriminologik chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, terrorchilar yer sharining turli joylarida alohida-alohida, bir-biridan batamom ajralgan holda harakat qilgan bo'lsalar, bugun ular o'z faoliyatini mintaqaviy, hatto umumsayyoraviy darajada muvofiqlashtirishga intilmoqdalar, ya'ni bugun insoniyat tinchligiga terrorchilar misolida xalqaro miqyosda uyushgan, kerak bo'lsa bir yoki bir necha qudratli markazlar tomonidan boshqarilayotgan siyosiy lashgan xalqaro jinoiy guruhlar tahdid solmoqda³.

Terrorizmning kelib chiqishi uchun nafaqat obyektiv, balki muayyan tipdagi shaxslarning, siyosiy zo'ravonlik va mutaassiblik (fanatizm)ning o'ziga xos an'analari asosida shakllanadigan muayyan tipdagi ongning paydo bo'lishi kabi subyektiv shart-sharoitlar ham kerak. Bunda obyektiv shart-sharoitlar hal qiluvchi, ammo har doim ham yetarli bo'lmagan omildir. Chunki «bu shart-sharoitlar ko'pchilik mamlakatlar uchun umumiy bo'lishi mumkin, «o'z-o'zidan yuzaga keladigan» siyosiy terrorizm esa ularning ayrimlaridagina kelib chiqadi»².

O'zbekistonda terrorizmning sabablari majmuini ularni tashkil qiluvchi determinantalarning o'zaro bog'liq guruhlarini majmui sifatida qarab chiqish lozim. Unga mamlakatimizda terrorizmga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi diniy va boshqa shu turdagi xususiyatlar kiradi. Bular ancha barqaror, har holda uzoq vaqt oralig'ida amal qilib kelayotgan, odatda kam sonli va amalda sun'iy ta'sir ko'rsatib bo'lmaydigan fundamental, muayyan ma'noda «abadiy» determinantalar guruhi bo'lib, bir qator aniq

¹ *Жўраев Н.* Халқаро терроризм ва минтақавий можаролар. – Т., 2000. – В.18.

² *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – В.110.

³ *Раджапова М.* Диний экстремизм ва террорчилик. – Т., 2000. – В. 27.

kriminogen omillarni qamrab oladi. Bunday sabablarni belgilangan vaqtda portlaydigan minaga qiyoslash mumkin. Ular amalda mustaqil mavjud bo‘ladi va mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat bo‘lganida ushbu sabablar yashirin bo‘ladi hamda tutab yotgan, ammo istalgan vaqtda yong‘in chiqarishi mumkin bo‘lgan o‘choqlar xususiyatiga ega bo‘ladi. Ular odatda qanday qulay sharoitlar (siyosiy inqirozlar, iqtisodiy va ijtimoiy larzalar va sh.k.), ya’ni ikkinchi darajadagi determinantalar yuzaga kelganida paydo bo‘ladi.

Terrorizmning bevosita determinantalarini tashkil etuvchi, «joriy», doimiy ravishda o‘zgaruvchi va chambarchas bog‘liq bo‘lgan, sabablardan kelib chiqadigan ko‘p sonli quyidagi sabablar mavjud:

- 1) demografik muammo;
- 2) qurol savdosi;
- 3) ommaviy madaniyat;
- 4) millatlararo munosabatlardagi keskinlik;
- 5) ko‘pgina masalalarning qonun darajasida tartibga solinmaganligi va boshq.

Terrorizm jinoyatining amaliy ifodasini qurol-yarog‘ning talon-toroj qilinishi misolida Andijon voqealarida ko‘rish mumkin. Masalan, 2004-yil 13-mayda Andijonda sodir etilgan terrorchilik oqibatida 169 kishi halok bo‘lgan, qurolli hujum davomida terrorchilar 305 dona qurol-aslahani, shu jumladan 205 ta avtomat va 100 ta to‘pponcha, 231 ta granata va qurollarni qo‘lga kiritgan¹, shuningdek, ular jazoni ijro etish muassasalaridan qariyb 600 nafar mahbusni chiqarib yuborgan².

Terrorizmning ijtimoiy va siyosiy manbalari muayyan yaxlitlikni hosil qiladi va bir-biridan ajralgan holda ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Ular juda jo‘shqin bo‘lib, u yoki bu jamiyat hayotida rivojlanishning muayyan bosqichida kechadigan murakkab jarayonlar bilan bog‘liq³.

Ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa G‘arb adabiyotida terrorizmning boshqa juda xilma-xil izohlari ham mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar Yevropa tajribasiga suyanib, terrorizm sababi sifatida chuqur shaxsiy, ekzistensial xususiyatga ega bo‘lgan xohish-istaklarni ajratganlar: «Moslashuvchanlikdan hazar qilish, yolg‘izlik, zerikishdan qochishga, ma’naviy vakuumni

¹ Халқ сўзи. – 2005. – 18 май.

² Халқ сўзи. – 2005. – 17 май.

³ Убайдуллазода Н.Т.Терроризмнинг олдини олишни ҳуқуқий ва ташкилий таъминлаш. –Т., 2012. – В. 44.

industrial-byurokratik sivilizatsiyaning shafqatsizligini yengishga intilish. Ekstremizm yoshlarni «kollektivistik» va maksimalistik qarorlar, ega bo‘lingan ideal saroblari bilan o‘ziga tortadi».

Dunyo bo‘yicha terrorizmning sodir etilish ko‘rsatkichi yildan-yilga ko‘payishi kuzatilmoqda. Buni statistik ma‘lumotlarning tahlili ham tasdiqlamoqda. Masalan, mutaxassislarining ma‘lumotlariga qaraganda, 1966-yildan boshlab jahon miqyosida terrorchilarning faoliyati ancha kuchaygan. Jumladan, dunyo bo‘yicha 1968-yildan 1980-yilgacha o‘tgan davrda 6700 ga yaqin, 1970–1978-yillarda 5534 ta, 1981-yilda 2700 ta, 1984-yilda 700 ta, 1985-yilda 800 ta, 1987-yilda 832 ta, 1989-yilda 856 ta terrorchilik harakati sodir etilgan¹. 1985–2006-yillar oralig‘ida yer yuzida 220dan ortiq ayollar tomonidan o‘zini qurbon qilish yo‘li bilan terrorchilik harakatlari amalga oshirilgan Hozirgi vaqtda dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari va ekstremistik yo‘nalishdagi guruhlar mavjud bo‘lib, ular tomonidan 2000 – 2011-yillar davomida 10 000 ga yaqin terrorchilik harakati sodir etilgan. Buning natijasida 26 mingdan ortiq kishi halok bo‘lgan va jarohatlangan².

Terrorizm uzoq tarixga ega hodisa bo‘lib, uning ildizlari insoniyatning qadimgi tarixiga borib taqaladi.

Terrorizmning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

1) terroristik harakatlarni amalga oshirishning muayyan usullari va vositalari yaratildi. Bularga portlatish, qotillik, o‘t qo‘yish, zaharlash, garovga olish kabi usullar hamda bomba, pichoq, xanjar, pistolet, miltiq, turli zaharli va porox kabi vositalardan foydalanish kiradi;

2) terrorizm o‘z mafkurasini yaratdi, natijada terrorizmning turli ko‘rinishlari paydo bo‘ldi (so‘l va o‘ng, ijtimoiy va siyosiy, millatchilik, dunyoqarash, inqilobiy va boshqalar);

3) terrorizmning ijtimoiylashuvi ro‘y berdi, ya’ni u aholining turli qatlamlari orasida, marginallardan tortib to aristokratlargacha o‘z ijtimoiy bazasiga ega bo‘ldi;

4) terrorizm institutsionallashib, o‘zining doimiy tashkilotlarini yaratdi va xalqaro xarakter kasb eta boshladi;

5) terrorizm ommaviy xarakter kasb eta boshladi, ya’ni u tobora ko‘proq qurbonlik talab qilib, qo‘rquv va tahlikaga sola boshladi;

¹ Салимов К. Н. Современные проблемы терроризма. – М., 2000. – С. 8.

² Францифиров Ю.В. Терроризм – преступление против общественной безопасности // История государства и права. – 2000. – № 1. – С. 42.

6) terroristlar odamlarni sarosimaga va dahshatga solishning zamonaviy usullari – gaz, bakteriologik vositalar masofaviy va kosmik aloqa, internet va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishga o‘tdilar. Garovga olinganlar hayotiga, yerning sun’iy yo‘ldoshlari va hatto yadroviy arsenallarga nisbatan ham real xavf paydo bo‘ldi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog‘liq holda sodir etiladigan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

a) ushbu jinoyatlar natijasida ijtimoiy hayotning turli jabhalarida, ya’ni iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy, moliyaviy, boshqaruv va boshqa sohalardagi munosabatlarga salbiy ta’sir o‘tkazishida;

b) bunday toifadagi jinoiy faoliyatning uyushganligi, alohida tayyorgarlik asosida amalga oshirilishi, bir vaqtning o‘zida boshqa ko‘pgina jinoyatlarning sodir etilishida;

d) diniy ekstremizmning muhosasizlikka asoslanganligi millatlar o‘rtasida mojarolarni, diniy milliy kamsitishlarni vujudga keltirishi, barqaror hayotni izdan chiqarishida;

e) jamiyatda barqarorlikni izdan chiqarishga, jamiyat a’zolariga keltirayotgan jismoniy, moddiy, ma’naviy, ruhiy zarar bilan insonlarda ishonchsizlik, g‘ulg‘ula uyg‘otishda, mustahkam fikrga ega bo‘lmagan shaxslarni jinoiy xatti-harakatlarga chorlashda, unga qarshi kurashish uchun katta xarajatlar sarf qilinishida;

f) turli xil ko‘rinishdagi va katta miqdorda zararlarning yetkazilishidir.

Shunday qilib, terrorizmning oldini olish, uning kriminologik jihatlarini chuqur ilmiy jihatdan o‘rganish, terrorizm jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslarning xususiyatlarini tadqiq etish hamda ushbu salbiy illatga qarshi kurash uchun kerakli maxsus bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, terrorizm sabablari juda murakkab va ko‘p darajali xususiyatga ega. Terrorizm jinoyatlarining sabab va sharoitlarini o‘rganish orqali ularga qarshi kriminologik chora-tadbirlarni belgilash va unga samarali profilaktik choralarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

2-§. Terrorizm va diniy ekstremizmning bugungi holati

Bugun u yoki bu diniy ekstremizmga, ya’ni dunyo xalqlarini parokanda qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakat ildizini biron-bir dunyoviy din

tarixiga, xususan, islom dini mohiyati, amaliyoti bilan bog‘lash g‘ayri tabiiylikdan boshqa narsa emas. Zero, falsafiy asosga ega bo‘lmagan har qanday fikr siyosat maydonida turli ziddiyatlarni keltirib chiqarishi muqarrar ekanligi insoniyat tarixida bir necha bor kuzatilgan.

Shuning uchun islom ekstremizmini dinning ildizlari, uning amaliyoti bilan emas, aksincha, manfaatdor guruhlarining o‘z siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun uning mafkuraviy jipslashtirish, yo‘naltirish qobiliyatidan qulay vaziyatda g‘oyaviy qurol sifatida foydalanishga bo‘lgan intilishlari bilan baholash lozim. Turli sabablarga ko‘ra, bugun XXI asrning ilk davrlarida dunyoni yoxud har bir alohida olingan davlatlar ichida ro‘y berayotgan ulkan transformatsiya davrida, ya‘ni eski mafkuralar birin-ketin «tutday to‘kilib», uning o‘rnida qiyinchilik bilan yangisi shakllanayotgan bir paytda, faqat diniy ta‘limotlarga odamlarni o‘z atrofida jipslashtirish qobiliyatiga ega bo‘lganligini ekstremistlar juda yaxshi bilishgan va undan ham yagona bayroq sifatida va kerak bo‘lsa, o‘zgalarga nisbatan adovat hissini uyg‘otish va nihoyat, vujudga kelgan o‘zaro barqarorlik sharoitida hokimiyatni qo‘lga olish yo‘lida kishilarni birlashtirish maqsadlarida ham foydalanishgan.

Jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga mos kelmaydigan va ularga zid bo‘lgan barcha g‘oyalar ekstremistik g‘oyalar hisoblanadi. Dinning qandaydir bir yo‘nalishiga asoslangan holda siyosiy maqsadni o‘rtaga qo‘yuvchi har qanday harakat diniy ekstremizmga olib kelishi shubhasizdir¹.

Demak, diniy ekstremizm va terrorizm hozirgi kunda jahon jamoatchiligini tashvishga solayotgan eng xavfli hodisalardan biri ekan. Bugungi kunda diniy ekstremizm – bu hokimiyat uchun kurash, millatlararo janjallar va turli siyosiy mojarolarni keltirib chiqarishda dindan siyosiy qurol sifatida foydalanishda namoyon bo‘lmoqda. Agar, biz yuqorida aytib o‘tilgan atamalardan yana biri «Fundamentalizm» tushunchasini tahlil qiladigan bo‘lsak, u ham o‘ziga xos xususiyatlariga egadir. «Fundamentalizm» – o‘ta tor diniy oqim hisoblanadi. Ayniqsa, diniy-ekstremistik oqimlar ta‘sirida gap ketganda «*Islom fundamentalizmi*» degan atama ko‘proq ishlatiladi. Diniy fundamentalizm oqimi muayyan dinning boshlang‘ich asoslarini targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadi.

¹ *Хусниддинов З.* Ислом ва диний экстремизм: ғоялар кураши // *Халқ сўзи.* – 1999. – 22 сент.

Islom fundamentalizmi tarafdorlari o'z maqsadlarini har qanday ko'rinishdagi zo'rlik ishlatish, ya'ni terroristik (qurolli kurash) yo'llar bilan hokimiyatni ag'darib tashlashni targ'ib qiladilar. Ularning jamiyat uchun o'ta xavfliligi shundaki, ular nafaqat g'oyalarini targ'ib qilish balki niyatlarini amalga oshirish uchun g'oyat qat'iyatlilik bilan, zo'rlik ishlatishning har qanday ko'rinishidan foydalangan holda harakat qiladilar. Bu yo'lda har qanday o'ta og'ir jinoyatlardan – odam o'ldirish, odamlar orasida qirg'in solish, turli vahimalar tarqatish, qurolli hujumlar uyushtirish, fitna tashkil qilish, bosqinchilik, qo'poruvchilik, terroristik kabi harakatlardan foydalanadilar. Alohida mavjud tuzumdan norozilik, o'rnatilgan konstitutsiyaviy tuzumga bo'ysunmaslik kabi kayfiyatlarni qo'zg'atishga harakat qiladilar. Natijada, butun jamiyat tizimini izdan chiqarish va shundan foydalanib hokimiyatni qo'lga olishni maqsad qiladilar.

Fundamentalistik, separatistik va ekstremistik diniy oqimlarning maqsadi bita, ya'ni siyosiy hokimiyatni har qanday yo'l bilan qo'lga olish va o'sha hududda o'z hukmronligini o'rnatishga qaratilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqorida aytilgan turli diniy-ekstremistik oqimlar diniy-siyosiy maqsadlarini amalga oshirishda dindan foydalanmoqdalar. Ular aholisining asosiy qismi musulmon diniga e'tiqod qiladigan davlatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham o'zlarining fundamentalistik, separatistik, ekstremistik g'oyalarini islomiy qoidalar sifatida targ'ibot qilmoqchi bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Turkiston press axborot agentligi muxbirining savollariga javob berar ekan, shunday deydi: «Biz o'z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz, shu bois uni hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo'lmaydi. Men O'zbekiston rahbari sifatida qandaydir yovuz kuchlar muqaddas Islom dinimizni, ota-bobolarimiz e'tiqodini, musulmon fuqarolarimizni tahqirlashga, jamiyatimiz hayotiga xavf tug'dirishiga hech qachon yo'l qo'ymayman»¹.

Diniy-ekstremistik va separatistik hamda fundamentalistik tashkilotlar, yuqorida ta'kidlanganidek, tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga, insonlarning huquq va erkinliklariga, davlatning xavfsizligiga, suvereniteti, konstitutsiyaviy tuzumiga, hududiy daxlsizligi va iqtisodiyotiga,

¹ *Каримов И.А.* Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. – Т., 1999. – В. 3,12–13.

jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tajovuz qiladigan harakatlar bo‘lganligi uchun mamlakatimiz hududida ularning faoliyat olib borishi taqiqlangan.

Bugungi kunda dunyodagi o‘nlab mamlakatlar diniy ekstremizm va terrorizm ofatidan azob chekmoqdalar. Hindiston, Turkiya, Isroil, Misr va bir qator Yevropa mamlakatlarida ham bu mavzu nihoyatda dolzarbdir. Ayrim davlatlarning belgilagan chora-tadbirlari, sa’y-harakatlari, afsuski, ko‘ngildagidek samara bermayapti. Chunki, terrorizm bugungi kunda xalqaro miqyosdagi muammodir. Qo‘poruvchilik harakatlarini boshqaradigan xalqaro markazlar vujudga keldi. AQSHdagi voqealar mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning xalqaro terrorizmga qarshi kurashda kuchlarni birlashtirish, terrorchilarni moliyaviy jihatdan ta’minlab turgan xalqaro markazlarni ildizi bilan yo‘qotish zarurligi haqidagi da’vatlari naqadar dolzarbligini yana bir bor namoyish etdi.

O‘zbekiston ekstremizm va terrorizmning nima ekanligini yaxshi biladi. Shu sababli, u Markaziy Osiyoda terrorizmga qarshi kurashda mustahkam qalqon bo‘lib turibdi. 1999 va 2000-yil kuzida Qirg‘iziston va mamlakatimizning ayrim hududlarida ro‘y bergan terrorchilik hujumi o‘z vaqtida bartaraf etildi. Respublikamiz chegaralarini mustahkamlash, mudofaa qudratini yuksaltirish, ayni paytda, aholining ma’rifiy saviyasi va hushyorligini oshirish borasida qilingan ishlar o‘z samarasini bermoqda.

Suriya va Iroqda sodir bo‘layotgan voqealarni keltirib o‘tish mumkin. Ushbu davlatlarning bir qismini egallab olgan va o‘zlarini «Islom davlati» (avvalroq Islom shom davlati deb nom olgan) deb vahshiyliklar sodir etayotgan «Xalifalik davlat»ni ko‘rsatish mumkin. Ta’kidlash lozimki, 2011-yildan to hozirga qadar qonli mojarolar kechayotgan Suriyaning o‘zida 240 minga yaqin kishi halok bo‘ldi. Har oyda Iroq va Suriyada 5 mingga yaqin kishi nobud bo‘lmoqda va ularning aksariyatini qariyalar, yosh bolalar va ayollar ya’ni begunoh insonlar tashkil etmoqda. Bunday xunrezliklar «Islom dini» niqobi ostida sodir etilib, butun dunyo ahliga «islomdan qo‘rqish» kabi hissiyotlarni paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lmoqda.

Bu yo‘nalishda «ijtimoiy xavflilik» kategoriyasidan alohida shaxs, guruh, uyushgan guruh, xalqaro jinoiy uyushma tomonidan jinoyat sodir etish ehtimolini bashorat qilish, shaxs jinoiy xislatlarining rivojlanib borishini oldindan ko‘ra bilish uchun foydalaniladi. Bu esa, o‘z navbatida, jinoyatchilikka, shu jumladan, diniy ekstremizm bilan bog‘liq holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash taktikasini belgilashga yordam beradi.

Dinning siyosiylashuvi insoniyat hayoti uchun har doim xavf solib kelgan va yaqin kelajakda ham shunday bo'lib qolishi mumkin. Zamon nafasi va manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib shuni aytish lozimki, diniy ekstremizm umuman insoniyatga, qolaversa, har bir insonga, uning hayotiy faoliyatiga hech qachon bugungidek sezilarli xavf tug'dirmagan. Holbuki, uning zamon bilan muayyan bog'liqligi yoxud XX asr oxiriga kelib diniy ekstremizm insoniyat uchun misli ko'rilmagan xavfga aylanganligi to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, e'tiborni oxirgi bosqichning yana bir o'ziga xos muammosiga qaratish maqsadga muvofiqdir. Islomdan diniy ekstremizmni, diniy ta'limotdan aqidaparastlik, radikal mazhabparastlikni aniq ajratgan holda shuni ta'kidlash zarurki, diniy ekstremizmning xuruji, odatda dunyoviy hokimiyatning jamiyat hayotining barcha sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish qobiliyati oshgan va uning olib borayotgan ijtimoiy amaliyoti aholining aksariyat qismi tomonidan qizg'in ma'qullanayotgan paytiga to'g'ri keladi. Keyingi, nisbatan qisqa davr ichida o'tgan vaqt siyosiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, diniy ekstremizmning xuruji har doim dunyoviy hokimiyat organlari tomonidan muvaffaqiyatli ichki va tashqi siyosat olib borilgan davriga to'g'ri keladi.

Diniy ekstremizmning dunyoviy davlat muvaffaqiyatlariga xurujining oshib borishi holati Turkiya, Rossiya, Shimoliy Irlandiya, Yaponiya davlatlari misollarida ham keltirish mumkin. Xususan, Rossiya jamiyati barqarorligiga raxna solishga, vaziyatni yanada keskinlashtirishga intilayotgan turli diniy sektalar faoliyati fikrimizning dalilidir. Rossiyadagi diniy ekstremizmning shakli boshqacharoq bo'lgani bilan, aslida mohiyatiga ko'ra boshqa mintaqalardagi hodisalardan farq qilmaydi. Uning negizida ham jamiyatning tub asoslariga zarba berish va hukmronlik qilish yotadi. Aum serike sektasi terrorchilarning jahonning eng taraqqiy qilgan mamlakati bo'lgan Yaponiya jamiyatini larzaga solganligi hali odamlar xotirasidan o'chgani yo'q. Shimoliy Irlandiyada mana bir necha yildan beri yuz berib kelayotgan katoliklar bilan protestantlar o'rtasidagi keskin kurash, undagi shafqatsiz terrorlar bu mamlakat barqarorligiga qattiq raxna solmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, demak, diniy ekstremizm barcha din vakillari ichida mavjud ekan, xo'sh, nima uchun yangi asr bo'sag'asiga kelib, dunyoviy davlat taraqqiyoti, uning turli sohalarida ko'zga ko'rinarli yutuqlarni qo'lga kiritishi o'ziga nisbatan diniy ekstremizm tahdidlarini kuchaytirmoqda? Agar masalaga chuqurroq yondashadigan bo'lsak, buning asosida ko'pgina sabablar yotganini ko'ramiz. Bu o'rinda,

avvalambor, diniy aqidaparastlikning dunyoviy davlat bilan ma'rifiy muomalaga va musobaqa qilishga tayyor emasligi holati yotadi.

Mustaqillik yillarida ham ma'nan, ham ruhan o'sgan buyuk kelajagimiz orzusi bilan yashayotgan xalqimiz aqidaparastlarning turli safsatalariga uchmadilar. Ularning buzuq niyatlarini tushunib yetdilar. Xalq ichidan davlatimizga qarshi hech qanday madad ololmagan ekstremistlar keyin yanada pastkashlik, terror, qo'poruvchilik yo'liga o'tishga urinib ko'rdilar. Bu borada ham ko'zlangan maqsadlariga erisha olmadilar. Poytaxtimizda ro'y bergan 16-fevral voqealari agressiv aqidaparastlarga nisbatan xalqimizning nafratini yanada oshirib yubordi. Chunki, 1999-yil 16-fevral kuni sodir etilgan Toshkent shahridagi terrorchilik harakati tufayli 16 nafar begunoh fuqaro halok bo'lgan, 128 nafar kishi turli darajada tan jarohatlari olgan.

Shuning uchun ham, doimo hushyorlik, ogoh bo'lishlik jamiyatimizning har bir vatanparvar fuqarosi uchun buyuk bir ichki da'vatga aylanmog'i kerak. Mamlakatimiz xavfsizligi, erishilgan barqarorlikning, millatlararo hamjihatlikni saqlash borasidagi mas'uliyatini jamiyatimizning har bir a'zosi ongli ravishda o'z zimmasiga olishi kerak. Chunki jamiyatimiz tinchligidan faqat va faqat o'zimiz manfaatdormiz. Zamona-miz tajribasi shuni ko'rsatadiki, nazariy jihatdan, dunyoviy davlat va uning siyosati uchun tahdid hozircha saqlanib qolmoqda. Bu o'rinda gap o'z vaqtida uning oldini olish, bartaraf etishga qodir bo'lgan chora-tadbirlar tizimining ishlab chiqilishi va lozim bo'lganda zudlik bilan ularning safarbar qilish omillari to'g'risida boradi.

Bugungi kunda insoniyat uchun asosiy xavf tug'dirayotgan diniy ekstremizm va uning bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishni samarali tashkil etish, bevosita ushbu toifaga kiruvchi jinoyatlarning jinoiy huquqiy va kriminologik xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

2001-yil 1-mart kuni AQSH Davlat departamenti xalqaro terrorizmga bag'ishlangan uchinchi ma'ruzasini taqdim etdi. Undagi statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2000-yilda butun dunyoda 423 marta terrorchilik harakati sodir etilgan. Bu 1999-yildagidan 8 foiz ko'p demakdir. Undan jabr ko'rganlar soni ham oshgan: 405 kishi halok bo'lib, 791 kishi yaralangan. Amerikaliklar nuqtai nazaridan quyidagi terrorchilik tashkilotlari xavfli sanaladi:

1. «Abu-Nidol tashkiloti» (rahbari vafotidan so'ng bu tashkilot deyarli faoliyat yuritmayapti);

2. «Abu-Sayyof guruhi» (Yaqin Sharq);
3. «Qurollangan islom guruhi» (Jazoir);
4. «Al-Qoida»;
5. «Al-Jihod» (Misr);
6. «Jamo'a ul-Islomiy» (Misr);
7. «Harakat al-Mujohidin» (Kashmir);
8. XAMAS (Yaqin Sharq);
9. «Hizbolloh» (Yaqin Sharq);
10. «Turkiston islom partiyasi» (Markaziy Osiyo);
11. «Falastin islom jihodi»;
12. «Falastin ozodligi fronti»;
13. «Falastin ozodligi xalq fronti»;
14. «Falastin ozodligi xalq fronti – Umumiy qo‘mondonlik»;
15. «Aum Sinrikyo» (Yaponiya, uning rahbari hibsga olingach, tashkilotning faolligi pasaydi);
16. «Bask ozodlik harakati» – «ETA» (Ispaniya);
17. «Haqiqiy IRA» (Irlandiya);
18. «Kaxane Xay» (Isroil);
19. «Kurdiston ishchilar partiyasi» (Turkiya);
20. «Inqilobiy xalq ozodligi» (Turkiya);
21. «Inqilobiy xalq kurashi» – «ELA» (Gretsiya);
22. «17 noyabr Inqilobiy tashkiloti» (Gretsiya);
23. «Tamil Ilamani ozod qiluvchi yo‘lbarlar» (Shri-Lanka);
24. «Mujohiddini Xald» (Eron);
25. «Milliy ozodlik Armiyasi» (Venesuela);
26. «Kolumbiya Inqilobiy Qurolli kuchlari» – «FARC» (Kolumbiya);
27. «Kolumbiya o‘zini o‘zi mudofaa qilish birlashgan kuchlari» – «AUG» (Kolumbiya);
28. «Oydin yo‘l» – «Sendero» (Peru).

Shuni qayd etish kerakki, dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi. AQSH birinchi galda o‘z milliy manfaatlariga xavf soluvchi tashkilotlarga e‘tibor qaratgan.

So‘nggi paytlarda Rossiya Federatsiyasi tomonidan ham quyidagi terrorchilik tashkilotlari ro‘yxati tuzilib, ularning faoliyati taqiqlandi, jumladan:

1. «Kavkaz mujohidlari birlashgan kuchlari oliy harbiy majlisi» (Checheniston – rahbari Basayev);

2. «Ichkeriya va Dog‘iston xalqlari kongressi» (Checheniston – rahbarlari Basayev, Udugov);
3. «Baza» – («Al Qoida»);
4. «Absat Al-Ansor» (Livan);
5. «Muqaddas urush» («Al-Jihod», Misr);
6. «Islom guruhi» («Jamoat ul-Islomiya», Misr);
7. «Musulmon birodarlar» («Al-Ixvon al-Muslimun»);
8. «Islom ozodligi partiyasi» («Hizbut-tahrir al-Islomiy»);
9. «Lashkari – Toyba» (Pokiston);
10. «Islom guruhi» («Jamoati Islomiy», Pokiston);
11. «Tolibon harakati» (Afg‘oniston);
12. «Turkiston islom partiyasi» (sobiq O‘zbekiston Islom harakati);
13. «Ijtimoiy islohotlar jamiyati» («Jamiyat al-Isloh al-Ijtimoiy», Quvayt);
14. «Islom merosini tiklash jamiyati» («Jamiyat Ixyo at-Turoz al-Islomiy» - Quvayt);
15. «Ikki muqaddas uy» («Al-Xaramayn», Saudiya Arabistoni).

«Hizbut-tahrir al-Islomiy» («Islom ozodligi partiyasi»)ning Moskva-dagi bo‘linmasini Rossiya Federatsiyasi IIV va Federal xavfsizlik xizmati (FXX) hamkorlikda zararsizlantirdi. Bu partiya o‘z ta‘sirini Rossiya hududida yoyishga intilgan. Ular dastlab O‘zbekistonda, unga qo‘shni davlatlarda shariat boshqaruvini joriy etish, keyinroq bu tartibni Rossiya-ning musulmonlar ko‘pchilikni tashkil etadigan hududlariga yoyishni rejalashtirgan. Rossiya FXX jamoatchilik bilan aloqa qilish markazi rahbarining aytishicha, «Islom ozodligi partiyasi» (IOP) tuzilmalari mamlakatning katta qismiga tarqalgan. Uning ta‘kidlashicha, bu guruh a‘zolari noqonuniy qurolli tuzilmalar uchun odam yollash, ularni moddiy ta‘minlash bilan shug‘ullanishgan. Bunda savdodan tushgan mablag‘lardan ham foydalanilgan. Rossiya poytaxtida mazkur partiyaning 120 a‘zosi qo‘lga olindi. Ular asosan O‘rta Osiyoliklar edi. Qurol olib yurgani uchun 2 kishiga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

Ushlanganlar orasida qirg‘izistonlik Alisher Musayev, tojikistonlik Akrom Jalolovlar bor edi. Musayevning avtomobilidan 100 g.ga yaqin portlovchi modda, 2 ta RGD-5 qo‘l granatasi, 1 dona F-1 granatasi, shuningdek, 15 ta targ‘ibot varaqasi topilgan. Jalolovning yonidan esa 400 g. ga yaqin trotil va 2 ta detonator olingan¹. 2002-yil 29-aprelda Bokuda

¹ O‘sha joyda.

«Hizbut-tahrir al-Islomiy»ning mahalliy shoxobchasi a'zosi bo'lgan ozarbayjonlik uch fuqaro qo'lga olindi. Ular Ozarbayjonda mavjud tuzumni o'zgartirib, islom davlatini tuzishga urinishgani uchun 7 yilga ozodlikdan mahrum etilishdi. 2001-yil yozida mazkur partiyaning uch faol a'zosi bo'lgan Ozarbayjon fuqarolari Yashar Mamedov, Elbrus Allaxverdiyev va Firutdin Nabiyeular qo'lga olinib, 6 yilga qamalgan edi.

2003-yilning birinchi yarmida Qozog'istonda ham bir qancha islomiy ekstremistik tashkilotlar aniqlandi. Jumladan, Almatida «Sharqiy Turkiston islom partiyasi»ning yashirin shoxobchasi fosh etildi. O'sha yil may oyida qo'lga olingan mazkur tashkilotning uch a'zosidan qurollar, o'q-dori va qo'lbola portlovchi moslamalar olindi. Ularning Afg'oniston, Eron, Qirg'iziston va O'zbekistondagi hammaslamlari bilan aloqalari aniqlandi².

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda diniy-ekstremistik guruhlar Bahrayn, Misr, Iordaniya, Yaman, Qatar, Quvayt, Livan, Birlashgan Arab Amirliklari, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Sudan, Suriya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Shveysariya, AQSH, Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlarda faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda «Musulmon birodarlar» 28 kishidan iborat qo'mita tomonidan boshqarilib, uning eng quyi bo'g'inini terrorchilik amaliyoti, targ'ibot-tashviqot ishlari, moliyaviy, moddiy-texnik ta'minot kabi sohalarga ixtisoslashgan, «amir» yetakchiligidagi 20 ga yaqin a'zoni o'z ichiga oladigan «jamoati islomiya» guruhlarini tashkil etadi. Qo'mita ushbu guruhlarining faoliyatini «usar al-islomiya» («islom oilalari») deb ataluvchi o'rta pog'ona tizim orqali muvofiqlashtirib turadi¹.

Tashkilot jangarilari maxsus lagerlarda terrorchilik amaliyotini tayyorlash va o'tkazishda zarur bo'lishi mumkin bo'lgan xufya ishlash asoslari, avtomashina haydash, topografik xarita bo'yicha joy topish, quroldan foydalanish, qo'l jangi va qo'poruvchilikni amalga oshirish bo'yicha mashg'ulotlarni o'taydilar.

Bugungi kunda «birodarlar»ning mahalliy bo'limlaridan ajralib chiqib, mustaqil faoliyat yuritayotgan bir qator diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilotlar mavjud. Ular qatorida Misrda faoliyat yuritayotgan «Al-jamo'a

² O'sha joyda.

¹ Жўраев Н. Халқаро терроризм ва минтақавий можаролар. – Т., 2000. – В.18.

al-islomiya», «al-Jihod», «at-Takfir val-hijra», «Jundulloh», Jazoirdagi «Qurollangan islom guruhi», «Islom jihodi», Saudiya Arabistonidagi «Jumaymana al-Uteybiy», ko'pchilik davlatlarda ildiz otishga harakat qilayotgan «Hizbut-tahrir al-islomiy» kabi tashkilotlarni ko'rsatish mumkin.

Terrorizmning yadroviy, xaydjeking, skaydjeking, kiberterrorizm, bioterrorizm, infoterrorizm kabi turli ko'rinishlarida jahonning u yoki bu chekkasida qo'poruvchilik harakatlarini olib borayotganiga guvoh bo'lmoqda¹. Biz har kuni ommaviy axborot vositalari orqali dunyoning qaysidir chekkasida qo'poruvchilik yoki zo'ravonlik harakatlari sodir etilganining guvohi bo'lamiz-u, lekin bunga befarq qaraymiz. Bugungi kuzatishlarga ko'ra xalqaro munosabatlar muammosining qo'yilishi, amaliyoti, amalga oshirilishi hamda ma'rifiy xalqaro siyosatdan kutilayotgan samaralar bilan ayrim davlatlarning xatti-harakati, xulq-atvori o'rtasida ulkan jarlik vujudga kelayotgani ko'zga tashlanmoqda. Dunyo hamjamiyati bunday kelishmovchiliklarning oldini olish uchun birgalikda terror deb atalmish yovuzlik xurujiga qarshi kurashsagina tinchlik o'rnatish mumkin.

Bugungi kunga kelib dunyo hamjamiyati terrorizmga qarshi kurashish uchun bir qancha muhim qadamlarni qo'ymog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik illatlari va ularning oldini olish haqida ham bir qator fikr va qarashlar ilgari surilgan. Xususan, ekstremizm, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik va xalqaro terrorga qarshi yalpi kurash olib borilmas ekan, maqsadga erishib bo'lmasligi, ayniqsa, yakka-yolg'iz, tarqoq holda va noizchil usullar bilan kurash olib borish istiqbolsiz ekani ta'kidlanadi².

Mutaxassislar ta'kidlaganlaridek, hozirgi vaqtda terrorchilar terrorchilik harakatlarining shafqatsizroq, ustalik bilan amalga oshiriladigan usullaridan foydalanmoqdalar, terrorchilar professional kontrterrorchidek merganlik bilan o'q otishga imkon beradigan zamonaviy texnik vositalar bilan qurollanmoqdalar.

Terrorchilik harakatlari odatda puxta tayyorlanadi, shu bois oldini olish choralarini ko'rish uchun barcha imkoniyatlar bordek tuyuladi. Biroq

¹ Сафарова Н. Терроризм: манбалар, мақсади ва глобаллашув жараёни. – Т., 2006. – В. 34.

² Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. –Т., 2001. – В. 380.

terrorchilar terrorchilik harakatini tayyorlayotganliklarini puxta niqoblaydilar, shu bois uning oldini olish juda qiyin bo‘ladi.

Terrorizmning asosida turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlar ham, ijtimoiy guruhlar ham bir-biridan ancha farq qilganligi sababli, terrorizm turli shakllarda namoyon bo‘ladi va ko‘p qirrali xususiyatga ega bo‘ladi. Shu sababdan muayyan harakatlarning mazmuni, ularni amalga oshirish maqsadlari va sohalari, shuningdek, terrorchilik xatti-harakatlarining motivlariga ko‘ra terrorizmning turlarini ajratish zarur.

Hozirgi vaqtda terrorchilik faoliyatining quyidagi shakllari mavjud:

– siyosiy motivlar bo‘yicha amalga oshiriladigan terrorizm, ya’ni hokimiyatni yo‘q qilish maqsadida davlat va jamoat arboblari yoki hokimiyat vakillarini o‘ldirish, portlashlar, yong‘inlar, shuningdek, odamlar halok bo‘lishi xavfini tug‘diruvchi harakatlar sodir etish va boshqa og‘ir oqibatlar keltirib chiqaradigan o‘zga harakatlar. Shu jihatdan turli siyosiy kuchlarning o‘ta ekstremistik doiralari katta xavf tug‘diradi;

– davlatga va uning vakillariga jinoyat ishlarini tergov qilishda xalaqit berish, jinoyatga oid qattiq siyosat olib borilishiga va davom ettirilishiga to‘sqinlik qilishga qaratilgan, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faol xodimlarini yo‘q qilish, sudyalarni yengil hukm chiqarishga majburlash, tergovga jinoiy faoliyatni yo‘q qilish va bartaraf etishda yordam berishi mumkin bo‘lgan jabrlanuvchilar, guvohlar va jurnalistlarni qo‘rqitish yoki dahshatga solish maqsadiga ega bo‘lgan uyushgan (ichki va xalqaro) jinoiy birlashmalarning jinoiy terrorizmi;

– hokimiyatning federal organlari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish hamda siyosiy yoki iqtisodiy mustaqillikka erishish maqsadiga ega bo‘lgan separatist kuchlarning milliy terrorizmi;

– odamlarni garovga olish orqali samolyotlarni olib qochadigan «havo» terrorizmi. Ushbu turga kiradigan terrorchilik harakatlari turli motivlar bo‘yicha sodir etiladi: boshqa mamlakatlarda siyosiy boshpana olish uchun, sodir etgan jinoyati uchun jinoiy javobgarlikdan qochish maqsadida hamda g‘arazli yoki boshqa shaxsiy niyatlarda;

– urush yoki xalqaro ziddiyatlar keltirib chiqarish maqsadida xorijiy davlat vakillarini o‘ldirish orqali amalga oshiriladigan xalqaro terrorizm.

2-mavzu. **TERRORIZM VA EKSTREMIZMNING SABAB VA SHAROITLARI**

1-§.Terrorizm va ekstremizmni vujudga kelishining ma'naviy - g'oyaviy omillari.

2-§.Terrorizm va ekstremizmni vujudga kelishining iqtisodiy - ijtimoiy omillari.

1-§.Terrorizm va ekstremizmni vujudga kelishining ma'naviy - g'oyaviy omillari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarida xalqimiz ruhiga mos keladigan imon-e'tiqod, insof, diyonat, mehr-oqibat, or-nomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, asosiy qomusda O'zbekiston hududida yashovchi har bir insonning manfaatlari, huquq va burchlari qonun asosida belgilab qo'yilgan. Asosiy qonunimiz O'zbekiston fuqarosini millatidan qat'i nazar teng huquqli deb biladi hamda ularning vijdon erkinligini, urf-odatlarini va milliy an'analarining hurmat qilinishini kafolatlaydi.

Bosh qomusimizning 18-moddasida barcha fuqarolarning dinidan qat'i nazar qonun oldida tengligi, 31-moddasida hamma uchun vijdon erkinligining kafolatlanganligi, har bir insonning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga egaligi, diniy qarashlarning majburan singdirilishiga yo'l qo'yilmasligi, 61-moddasida diniy tashkilot va birlashmalarning davlatdan ajratilganligi hamda qonun oldida tengligi, shuningdek davlatning diniy birlashmalar faoliyatiga aralashmasligi mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida «*Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi*» deb belgilab qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «*Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida*»gi 1998-yil 1-may qonunining 3-moddasida «*Vijdon erkinligi huquqi*» belgilangan bo'lib, ular quyidagilar:

– vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir;

– fuqaro o‘zining dinga, dinga e’tiqod qilishga yoki e’tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta’lim olishga o‘z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘yilmaydi;

– voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o‘qitishga yo‘l qo‘yilmaydi;

– dinga e’tiqod qilish yoki o‘zga e’tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan darajadagina cheklanishi mumkin;

– chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e’tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo‘ladilar.

Terrorizm va ekstremizmning mazmun-mohiyatini – tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro miqyosda o‘zini baralla namoyon etayotgan xatarli voqeliklardan biri, shubhasiz, diniy ekstremizm va undan oziqlanayotgan hamda diniy shiorlar bilan niqoblangan terrorizmdir. Bugungi kunga kelib, mazkur xatar shu qadar keng ko‘lam va xilma-xil ko‘rinishlar kasb etmoqdaki, odamlar, ko‘pincha, unga e’tiborsiz hatto loqayd bo‘lib qolmoqdalar. Boshqacha aytganda, «diniy fundamentalizm», «diniy ekstremizm» va «xalqaro terrorizm» degan tushunchalar hayotiy voqelikning ajralmas qismidek qabul qilinmoqda. Bu nihoyatda achinarli hol, albatta¹.

Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri bunday harakat tarafdorlarining «zo‘rlik – davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi parokandalikka olib keluvchi maqsaddir», – degan g‘oyaga asoslanib harakat qilishlari yaqqol ko‘rinadi. Terrorizmning yana bir xususiyati hech qanday urush bo‘lmayotgan, tinchlik hukmronlik qilayotgan, jamiyatda demokratik institutlar faoliyat ko‘rsatayotgan bir sharoitda muqobil usullarini atayin inkor etgan holda, siyosiy masalalarni zo‘rlik bilan hal qilishga intilishida ko‘rinadi.

¹ Жўраев Н. Халқаро терроризм ва минтақавий можаролар. – Т., 2000. – В.18.

«**Ekstremizm**» soʻzi «aql bovar qilmas darajada» maʼnolarini anglatadi. Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va meʼyorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik ekstremizmning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Turli ekstremistik guruhlarining oʻzaro munosabatda doimiy kelishmovchilik va janjallar, voqelikning keskin oʻzgarishlar sharoitida ular boʻlinib ketadigan guruhlar oʻrtasidagi «revolyutsionirlikda» musobaqalashuv kuzatiladi. Amerikalik sotsiolog K.Kenidon «bunday guruhlarda odatiy shaxsiy nizolar, liderlik uchun kurash, did va qarashlardagi farq sezilarli darajada oʻsib, baʼzida, hatto hayot-mamot masalasigacha yetib boradi», – deb yozgan edi. Ekstremistik va terroristik tashkilotlarga yangi aʼzolarining qoʻshilishi, koʻpincha, dinga kiritish, qabul qilishdek shaklu shamoyil kasb etadi hamda bir qancha tanlov va sinov bosqichlarini oʻz ichiga oladi. Ekstremistik harakatlarning eng quyi tabaqasi koʻpincha siyosiy tusga ega boʻlmagan, mayda zoʻrlilik va jinoyatlar sodir etadigan unsurlar bilan bogʻliq boʻladi. Bunday zoʻrlilikning siyosiylashtirilishi terrorizm tomon qoʻyilgan birinchi qadam boʻladi. Oʻz doirasiga yangi kimsalarni tortar ekan, terrorchilik guruhi yoki uning rahbariyati soʻzsiz boʻysunishini va «ish»ga mutasibona sadoqatni talab qiladi. Keyinroq esa yollanuvchilar «hamma narsani biluvchi» va ularga yoʻlboshchilik qiluvchi sarbonga duch keladilar.

Zamonaviy terrorizmning ikkita alohida xatarli belgisini ajratib koʻrsatish mumkin: bir tomondan, u tobora shafqatsizroq gʻayriinsoniy mohiyat, ikkinchi tomondan, aqlga sigʻdirish qiyin jugʻrofiy koʻlamlar kasb etib bormoqda. AQSH davlat departamentining maʼlumotlariga koʻra, hozirda dunyoda har yili 650 dan ortiq bunday hodisalar sodir etilmoqda. Bu degani – har kuni dunyoning u yoki bu burchagida kimlardir qoʻrquvga solish orqali muayyan maqsadlarga erishishni koʻzlagan, kamida ikkita qoʻporuvchilik amalga oshirilmoqda. Xatarli jihati shundaki, ularning soni muntazam oshib bormoqda. Masalan, 1992-yilda ana shunday noxush voqealarning umumiy soni 362 tani tashkil etgan boʻlsa, bugungi kunga kelib 900 dan oshib ketdi¹.

Ekstremistik qarashlarni barcha diniy taʼlimotlar doirasida uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituv-

¹ *Ражабова М.А.* Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг жиний-хуқуқий муаммолари: Юрид. фан. д-ри. ... дис. – Т., 2002. – В.152.

chi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar – papa hokimiyati dushmanlarini ta’qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo’lishiga olib kelgan inkvizitsiya sifatida baholaydi.

Shu bois ekstremizmni muayyan din bilan bog’lash mutlaqo asossizdir. Xususan, islom dini, turmush tarzi va qadriyatlar majmui sifatida hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go’yoki, din va musulmonlar jamoasi ravnaqi yo’lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Hozirgi davrda ko’plab ekstremistik uyushmalar va aqidaparastlar turli dinlar, shu jumladan, xristianlik, islom, yahudiylik dinlari ta’limotidan foydalanmoqdalar. Shu bilan birgalikda, diniy ritorika ularga ko’zda tutilayotgan aniq shaklu shamoyilini taqdim etmagan holda (bu ular uchun xuddi anarxistlar kabi unchalik ahamiyatga ega emas) xayoliy – jamiyat haqidagi tasavvurlardan foydalanish imkonini beradi. Bunda eng muhimi tartibsizlik va beqarorlikni keltirib chiqarishdir. Unga erishish esa, o’ziga xos eng umumiy maqsadni tashkil etadi, deyish mumkin.

Mintaqamizda faoliyat yuritishga intilgan uyushmalar qatorida eng avvalo «Islom lashkarlari», «Adolat», «Tablig’chilar», «Akromiylik», «O’zbekiston islomiy harakati» kabilarni aytib o’tish mumkin. Ularning ba’zilari butunlay yo’q qilingan bo’lsa, ayrimlarining qoldiqlari bugungi kunda boshqa harakat, tashkilotlar tarkibiga singib ketganini ta’kidlash zarur.

O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov dunyo xavfsizligiga tahdid solib turgan «Xalqaro terrorizm» deb atalmish jinoiy hodisa to’g’risida to’xtalib: «o’zgalar qonini to’kish hisobiga mo’may daromad olishni istovchilar batamom yo’q bo’lib ketadigan zamonlar kelishiga hali borga o’xshaydi. Bu toifaga kiruvchi «bizneschilar» uchun qon va nopok siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko’rish mumkin bo’ladigan mojarolarni rag’batlantirish borasida eng qulay vosita ekanligini gapirma ham bo’ladi» – deb alohida ta’kidlaydi.¹

Terrorizm va diniy ekstremizning ma’naviy - g’oyaviy omillari.
Globallashuv jarayoni tufayli dunyoning mafkuraviy manzarasi tobora

¹ *Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – В. 89.*

boyib, undagi mafkuraviy jarayonlar tezlashib borayotganligini va turli manfaatlarga xizmat qiluvchi mafkuralar va qarashlar o'rtasida kurash ketayotganligini kuzatish mumkin. Globallashuv sharoitida dunyo xalqlari o'rtasida aloqalar rivojlanib, iqtisodiy o'sish yuz bermoqda, madaniyatlar boyib borishi bilan birga, alohida millatlar ma'naviyatiga tahdidlar ham ko'zga tashlanmoqda.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi deb, jahonning mafkuraviy poligonlarida turli siyosiy manfaatlarni ifodalash yo'lida o'zaro kurashayotgan va ta'sirlashayotgan mafkuralarga aytiladi. Bugun mafkuraviy poligonlarda bunyodkor (xavfsizlikni ta'minlash, tinchlik va barqarorlik) va buzg'unchi (terrorizm, diniy ekstremizm) mafkuralar o'rtasida kurash ketmoqda.

Islom dini niqobi ostida **xalifalikni tiklashga intilayotgan** harakatlarga vahhobiylik, hizbut-tahrir, akromiylik g'oyalarini kiritish mumkin¹.

Mamlakatimizdagi g'oyaviy maydonga o'r'nashib olishga harakat qilgan vahhobiylik diniy niqobdagi zararli oqim bo'lib, unga XVIII asrning 40-yillarida Arabiston yarim orolida Muhammad ibn Abdul-Vahhob (1703–1792-yillarda yashagan) tomonidan asos solingan. Bu ta'limot IX asrda vujudga kelgan hanbaliylik mazhabining asoschisi Ahmad Abu Abdulloh ash-Shayboniy (780–855-yillarda yashagan) ta'limotining ayrim tajovuzkor jihatlarini, XIV asrdagi suriyalik ilohiyotchi T.O.Taymiyanning ba'zi g'oyalarini o'z faoliyati uchun asos qilib olgan.

Vahhobiylik islom g'oyalariga siyosiy tus berib, din nomidan ish yuritib, go'yoki islomni payg'ambar davridagi «**asl holatiga qaytarish**», ya'ni uni tozalash, barcha musulmonlarni islomning yashil bayrog'i ostida birlashtirish kabi g'oyalarni ilgari suradi. Bu mafkura Ollohdan boshqa barcha diniy va hayotiy qadriyatlarni inkor qiladi. U Qur'oni Karimning muqaddasligini e'tirof etsa-da, uning tafsirini inobatga olmaslik, **choryorlarni, aziz-avliyolarni, buyuk piru valiylarni tan olmaslik, muqaddas qadamjolarini buzib tashlashni targ'ib** qilishda namoyon bo'ladi. Vahhobiylar islom dinidagi mazhablar – hanafiylik, molikiylik, shofiiylik, ja'fariylik vakillarini kofirlar deb ataydilar.

Hizbut-tahrir sobiq Ittifoq kommunistik mafkurasi tanazzulga yuz tuta boshlagan davrlardan boshlab, g'oyaviy bo'shliq sharoitida kishilarning ongi va dunyoqarashiga mazkur oqim ham o'z mafkurasi orqali ta'sir

¹ *Убайдуллазода Н.Т. Терроризмнинг олдини олишни ҳуқуқий ва ташкилий таъминлаш. –Т., 2012. – В. 44.*

o'tkaza boshladi. Hizbut-tahrirga islom siyosiy partiyasi sifatida 1950–1953-yillarda Livanda Taqiyuddin Nabhoniy asos solgan. Ayni vaqtda bu harakatga Abdulqadim Zallum rahnamolik qilmoqda. Jami 30 dan ziyod islom mamlakatlarida norasmiy faoliyat yuritayotgan bu partiyaning **asosiy g'oyaviy maqsadi – xalifalikni tiklash, bugungi dunyoviy davlatchilik asoslarini yo'q qilish, demokratiya prinsiplarini rad etish, qonun ustuvorligi o'rniga shariat aqidalarini joriy etish, saylov tizimini inkor qilish va hokazo.**

Hizbut-tahrir diniy oqimi vakillarining asosiy vazifasi joylarda, qolaversa, **mintaqada siyosiy, g'oyaviy, mafkuraviy jihatdan hukmronlikni o'rnatish, o'zining salbiy ta'sir doirasini kengaytirish, irodasi bo'sh, mustaqil fikrga ega bo'lmagan odamlarning qalbi va ongini zabt etish orqali buzg'unchi mafkuralarni singdirishdan iboratdir.** Hizbut-tahrirchilar eng avvalo hali mustaqil dunyoqarashi to'la shakllanmagan, sodda yoshlarga islom dini, uning ibodat amallari, Qur'oni Karim va turli diniy manbalardan saboq berish bahonasida o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qiladilar. Ular odatda 3–4 kun islomni o'rgatib, keyin asl maqsadga o'tadilar. Hizbut-tahrirchilar «**Islom nizomi**», «**Hizbiy uyushma**», «**Hizbut-tahrir tushunchalari**», «**Islomiy davlat**», «**Xalifalik**», «**Demokratiya – kufr nizomi**» kabi o'quv dasturlari, kitob va risolalari, «**Al-Va'y**», «**Ong**» jurnali hamda varaqalar orqali o'z g'oyalarini yoshlar ongiga singdirishga harakat qiladilar¹.

Akromiylik oqimi dastlab Andijon viloyatida, so'ngra Farg'ona vodiysida, keyinroq mamlakatimizning butun hududida, keyinchalik barcha musulmon mamlakatlarida xalifalikni tiklash g'oyasini olg'a suradi.

Bu oqim asoschisi Akrom Sotvoldiyevich Yo'ldoshev 1963-yilda Andijon shahrida tug'ilgan. U Andijondagi «jihodchilar»ning rahnamosi Abduvali Mirzayevning shogirdlaridan biri.

Akromiylik jamiyatdagi barcha yomon illatlarni kishilarning ma'naviy qashshoqligi, axloqiy nopokligi va johilligida emas, balki noto'g'ri tuzumda deb baholaydilar va uni o'zgartirishni o'zlari uchun birlamchi vazifa qilib belgilaydilar, ya'ni **amaldagi konstitutsiyaviy tuzumni, xalq irodasi bilan shakllangan davlatni o'zgartirishdir.**

Ma'lumki, XXI asr ibtidosida jamiyat barqarorligi, xavfsizligiga tahdidlar majmuasida mafkuraviy tahdidning tarkibiy qismiga aylangan

¹ O'sha joyda.

diniy ekstremizm bosh omil va keng qo‘llanilayotgan uslub sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Diniy ekstremizmning Afg‘onistondagi o‘choqlari asosan yo‘q qilingan bo‘lsa-da, xavf hamon saqlanib qolmoqda. Ma‘lum doiralar bizga qo‘shni bo‘lgan ayrim davlatlarda o‘z «uyalarini» yaratishga urinmoqdalar.

Diniy ekstremizm mintaqada yashirin, ammo nisbatan passiv, keyinroq ochiq-oshkora tashviqot va zo‘ravonlikka asoslangan faol harakatlar, so‘ng unga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar natijasida yana o‘ta maxfiy ishlash asnosida targ‘ibot olib borish va aniq qo‘poruvchilik xurujlarini sodir etishdek sifatli bosqichlarni bosib o‘tdi, deyish mumkin.

Diniy-ekstremistik oqimlarning **g‘arazli maqsadlarga asoslangan g‘oyalari**dan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, barcha islomiy diniy-ekstremistik harakatlar o‘z oldiga tinch-osoyshta davlatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy vaziyatni inqirozga keltirish yo‘li bilan hokimiyatni egallash va o‘z hokimiyatini o‘rnatish maqsadini qo‘yadigan g‘oyalardir. Ammo unga erishishda har bir diniy-ekstremistik harakat, tashkilotda o‘ziga xos yo‘l va uslublardan foydalanadi. Xususan, «Hizbut-tahrir» avvalo, islom niqobi ostida ekstremistik g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan tushuntirish ishlarini olib boradi. Bunda hizbchi har bir shaxsning fikrlash doirasiga qarab o‘z ta‘limotiga da‘vat etadi¹.

Ayni paytda, «Hizbut-tahrir» kurashni uch bosqichda olib borishni ko‘zlaydi. Ulardan **birinchisi** – «tasqif» tushuntirish ishlari bosqichidir. Unda hali ongi to‘liq shakllanmagan, fikri zaif, ta‘sirga beriluvchang yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirish, huquq-tartibot va hokimiyat idoralaridagi mas‘ul shaxslarni o‘z tarafiga og‘dirishdek maqsadlarga erishish ko‘zlanadi.

Ikkinchi – «tafaul» birgalikda harakat qilish bosqichida fikriy kurash orqali «Ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongligi va kelajak masalalarini idrok qilishga erishish» yo‘lida fikriy inqilobga yetishish nazarda tutiladi.

Uchinchi – «inqilob» to‘ntarish bosqichida esa, tarbiyalangan ummat orqali hokimiyatni qo‘lga kiritish mo‘ljallanadi.

Yuqoridagilardan «Hizbut-tahrir» ham boshqa diniy-ekstremistik tashkilotlar kabi mavjud **konstitutsiyaviy tuzumni ag‘darib tashlab, hokimiyat tepasiga kelishga intilish, yagona xalifalik davlatini qurish, uning asosiy va so‘ngi maqsadi ekani ochiq-oydin ko‘rinib turibdi.**

¹ *Хусниддинов З.* Ислом ва диний экстремизм: ғоялар кураши // Халқ сўзи. – 1999. –22 сент.

Shuning uchun ham, «Hizbut-tahrir»ning rasmiy faoliyat ko'rsatishi deyarli barcha musulmon mamlakatlari, jumladan, arab davlatlarida rasman taqiqlangan. Bunday tuzum bugun qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini «Tolibon» harakati Afg'onistonda olib borgan siyosati va uning oqibatlari ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Diniy-ekstremistik tashkilotlarning g'oyaviy manbalariga mintaqamizda faoliyat yuritishga intilgan uyushmalar qatorida eng avvalo «**Islom lashkarlari**», «**Adolat**», «**Tablig'chilar**», «**Akromiylik**», «**O'zbekiston islomiy harakati**» kabilarni aytib o'tish mumkin. Ularning ba'zilari butunlay yo'q qilingan bo'lsa, ayrimlarining qoldiqlari bugungi kunda boshqa harakat, tashkilotlar tarkibiga singib ketganini ta'kidlash zarur¹.

Afsuski, oxirgi paytlarda terroristik xurujlar ko'p hollarda islom bayrog'i ostida uyushtirilmoqda. Buning sababi shundaki, ko'pgina terroristik guruhlarining faoliyati uchun aynan diniy ekstremizm g'oyaviy poydevor vazifasini o'tamoqda. Ularning **g'oyaviy maqsadi** – o'rta asrlarga qaytish, barcha musulmonlarni birlashtiruvchi xalifalik davlatini barpo etish, jamiyatda islom shariati tartiblarini o'rnatishdir. Ularning g'arazli g'oyalarida – «**Tinch sharoitda bir kishini o'ldirish jangda yuzta askarni o'ldirishdan ko'ra samaraliroq**».

Jinoiy tuzulmalarning mafkuraviy poydevoriga ega ekstremistik guruhlar bilan ongli ravishda birlashadi. Bunday birlashishdan maqsad jinoiy tuzulmalarning xunrezliklarga «g'oya uchun kurash», qotilliklarga «adolat uchun kurash», qo'poruvchiliklarga «muqaddas urush» g'oyaviy tusini beradilar.

«**Musulmon birodarlari**» hech qanday ma'muriy-jug'rofiy hududni tan olmaydilar va pirovard maqsadda yer yuzidagi barcha mamlakatlarda yagona musulmonlar birligi va ularning diniy va dunyoviy hokimiyatini o'zida mujassamlashtirgan «xalifa» rahbarligidagi yagona musulmon davlati qurishni ko'zlaydilar. Bu shartni bajarmoq, niyatga yetmoq uchun har qanday xunrezlikka va birodarkushlikka fatvo beriladi.

Diniy ekstremizm namoyon bo'lishiga ko'ra hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Bunday qarashlar juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, millat, hududni tan olmagan, diniy

¹ Убайдуллазода Н.Т. Терроризмнинг олдини олишни хукукий ва ташкилий таъминлаш. –Т., 2012. – В.44.

ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistlar qayerda va qaysi din bayrog‘i ostida faoliyat ko‘rsatmasin, asosiy g‘oyaviy maqsadi **diniy davlatni barpo qilish** bo‘lib, bu maqsadga o‘zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to‘qnashuvlar orqali, ya‘ni qon to‘kish va zo‘rluk bilan erishishni ko‘zlaydilar.

Bugungi kunda terrorizmning ekstremistik guruhlar bilan birlashish omillari manfaatlarning birligida namoyon bo‘layotganligini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

□ Davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va ichki siyosatni o‘zgartirishga yo‘naltirilgan siyosiy maqsadlar;

□ tashkilot va ayrim shaxslarning strategik ahamiyatga ega mulklarni, korxonalar va inshootlarni qo‘lga kiritish orqali iqtisodiyotni izidan chiqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiy manfaatlar;

□ ma‘lum millat vakillari va milliy guruhlarining bir hududda yashaydigan boshqa millat va milliy guruhlariga qaratilgan etnik – milliy ziddiyatlarni yuzaga keltirish;

□ Davlat xizmatchilari tartibsizligini yuzaga keltirishga qaratilgan va jamiyatning kuch ishlatadigan tuzulmalarini izidan chiqarishga yo‘naltirilgan maqsadlar;

□ ayrim ekstremistik guruhlarining diniy shiorlar ostida hokimiyatni egallab olish maqsadini ko‘zlagan diniy terrorizm;

□ turli jinoyatchilik elementlaridan iborat bosqinchi guruhlarining o‘g‘irlik, talonchilik va bosqinchilik orqali hukumatni obro‘sizlantirish, jamiyatda qo‘rquv va ishonchsizlik muhitini vujudga keltirishga yo‘naltirilgan jinoiy terrorizm kabi ko‘rinishlarda maqsadlar uyg‘unligi kuzatiladi¹.

Diniy-ekstremistik ruhidagi terrorchi tashkilotlarning O‘zbekistondagi strategik maqsadlari shariatga asoslangan **teokratik davlat** tuzish bo‘lib, buning uchun quyidagilarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

□ aholini keng ko‘lamda islomiyashtirish;

□ ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish;

□ dinlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish;

□ Xorijda faoliyat yuritayotgan diniy-ekstremistik tashkilotlar bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatish, ular imkoniyatidan guruh jangarilarini tayyorlashda va faoliyatini moddiy-texnik ta‘minlashda foydalanish.

¹ *Ражабова М.А.* Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг жиний-хуқуқий муаммолари: Юрид. фан. д-ри. ... дис. – Т., 2002. – Б.152.

Diniy-ekstremistik tashkilotlarning asosiy faoliyat usullari quyidagilardan iborat:

□ diniy-ekstremistik ruhdagi, shu jumladan, «jihod», «shohidlik» g'oyalari targ'ib qilingan varaqa, adabiyot, video va audio tasmlarini tarqatish;

□ yashirin «hujralarda» o'qitilayotgan radikal islomiy tushunchalarni singdirish;

□ O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy holatni keskin qoralash;

□ rasmiy diniy tuzilmalarni obro'sizlantirish;

□ yashirin guruhlar tuzish va uning a'zolarini maxsus tayyorgarlikdan o'tkazish;

□ o'z tarafdorlarini davlat strukturalariga kiritishga urinish;

□ ayollardan iborat yacheykalarni kuchaytirish;

□ terror vositalaridan samarali foydalanish kabilar¹.

Yuqoridagilardan ma'lumki, bu kabi diniy-ekstremistik tashkilotlar o'zlarining razil harakatlarini keng qamrovli, terroristik xarakterdagi barcha tuzulma va harakatlar bilan ishonchli hamkorlikni, o'zaro manfaatdorlikni ham moddiy, ham moliyaviy birlikni yuzaga keltirish orqali belgilangan rejalar asosida va aniq maqsadlarni ko'zlab amalga oshirmoqdalar.

Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm keltirib chiqaradigan xavf-xatar, birinchidan, aqidaparastlikni yoyish orqali dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishda, ezgulik yo'lidagi o'zgarishlarning ustuvor shartlari bo'lgan barqarorlikni, milliy, fuqarolararo va millatlararo totuvlikni buzishga urinishda namoyon bo'lmoqda. Aqidaparastlarning maqsadi demokratiyani, dunyoviy davlatni, ko'p millatli va ko'p dinli jamiyatni obro'sizlantirishdan iborat.

Ekstremistik va terroristik tashkilotlarning yagona birlashtiruvchi kuchi islom sivilizatsiyasi bilan islomiy bo'lmagan sivilizatsiya o'rtasida yalpi qarama-qarshilikni shakllantirishda namoyon bo'lmoqda.

Buzg'unchi dunyoqarashning tub negizida bilimsizlik, ya'ni g'oyasizlik yotadi. **G'oyasizlik** – insonlar, ijtimoiy guruhlar tafakkuri va ongida muayyan bilimlarga asoslangan fikrlarning yo'qligi. G'oyasizlik odatda hali o'zligini anglab yetmagan, o'z manfaat va imkoniyatlarini ifoda eta

¹ Хусниддинов З. Ислам ва диний экстремизм: ғоялар кураши // Халқ сўзи. – 1999. –22 сент.

olmaydigan, maqsad-muddaolari va hayotiy qadriyatlarni anglab yetmagan kishilarda uchraydi. Ma'naviyati tuban, imon-e'tiqodi sust, mafkurasi buzuq kimsalarni yuzaga keltiradi. O'z o'tmishi va nasl-nasabini bilmaslik, tarixiy xotirani unutish ham g'oyasizlikning bir ko'rinishidir.

G'oyaviy bo'shliq hosil bo'lishining sabablaridan biri jamiyatda siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy tarbiyaning yetarli emasligi, mafkuraviy jarayonlarning o'z holiga tashlab qo'yilganligidadir. G'oyaviy bo'shliq hosil bo'lgan joyda, albatta, xalq manfaat va qiziqishlariga begona bo'lgan turli xil g'arazli mafkuralar o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Jamiyatda xalqni mafkuraviy masalalarda uyushtirmagan, uning ma'naviyati va ma'rifatiga, axloqiga yetarli e'tibor bermagan, ta'lim-tarbiyani o'z holiga tashlab qo'ygan davlat g'oyaviy zaiflikka yo'l qo'yadi.

G'oyaviy zaiflik – Xalq ommasining tub manfaatlarini va ko'nglidagi orzu-intilishlarini ifoda etadigan, uni taraqqiyot sari, ulkan maqsadlar yo'lida jipslashtiradigan haqqoniy va jozibali g'oyaning, mafkuraning yo'qligi, ishlab chiqilmaganligi natijasida hosil bo'ladi. U ko'p hollarda ma'naviy beqarorlik va parokandalikka olib keladi. Jamiyatda mafkuraviy jihatdan yetarli bilim, malaka, ko'nikmalarga ega bo'lmagan insonlar g'oyaviy savodsizlikka uchraydi¹.

G'oyaviy savodsiz insonlar mustaqil fikr, mustahkam iroda, o'z dunyo-qarashiga ega bo'lmaydi, zamonaviy fan-texnika, informatsion texnologiyalar, komillik fazilatlaridan yiroqlashib boradilar, jamiyatda o'z o'rniga, aniq maqsadlariga ega bo'lmaydilar. Natijada bunday insonlar yashayotgan jamiyatga nisbatan g'oyaviy tajovuzlar tez-tez xuruj qilib turadi.

G'oyaviy tajovuz – muayyan bir jamiyat, davlat, ijtimoiy qatlam ongi va ruhiyatiga tashqaridan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sir, g'arazgo'y maqsad-manfaatlarga xizmat qiladigan mafkuraviy bosqinchilik.

Hozirda keskin tus olib borayotgan globallashuv jarayonlarida g'oyaviy tajovuzlarning turli-tuman ko'rinishlari hamda ta'sir etish usul va vositalari ishlab chiqilmoqda. Qurolli kuch bilan o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshira olmayotgan ekstremistik va terroristik guruhlar tobora mafkuraviy tajovuz yo'liga o'tmoqdalar. Bunday tajovuzlarga mamlakat ahli faqat umuminsoniy g'oyalar va demokratik tamoyillarga asoslangan sog'lom mafkura bilan qarshi tura olishi mumkin. Buzg'unchi mafkuralarning amalga oshirilishi millatlar va xalqlar madaniyatining yemiri-

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.,2008. – В.111.

lishiga, davlat va jamiyat hayotida salbiy hodisalarning kuchayishiga sabab bo'lgan, ko'plab xalqlarni o'z yo'lini o'zi tanlash huquqidan mahrum etgan. Buzg'unchi mafkuraning salbiy ta'siri natijasida shaxs mustaqil fikrlashdan mahrum bo'lishi va keyinchalik kamikadze, zombi, manqurtga aylanishi yoxud ayanchli oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishning eng asosiy omillaridan birida – bilimlardir. Bilimlar adolatli va haqiqiy bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatini boyitishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bilimlar Vatan va xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

Mafkuraviy tarbiya jarayonida kishilarda yot bo'lgan vayronkor va buzg'unchilikka asoslangan zo'ravonlik mafkuralariga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Bu uzoq davom etadigan jarayondir. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish, singdirish emas, balki odamlarda mustaqil fikrlash, oq-qorani ajratish, buzg'unchi mafkuralarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni tarbiyalashda, yot g'oya va mafkuralardan saqlanishda ijtimoiy-gumanitar fanlar muhim rol o'ynaydi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish mafkuraviy-tarbiyaviy ishlar samaradorligiga erishishning muhim mezoni hisoblanadi. Shu bois yosh avlodni ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun, halol-pok shaxs sifatida tarbiyalash uchun ularda kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirish – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdagi eng asosiy shartlardan biri bo'lib qolaveradi. Yot g'oya va mafkuralardan saqlanish va ogoh bo'lishda mafkuraviy profilaktikaning o'rnini ham muhimdir.

Mafkuraviy profilaktika mohiyatiga ko'ra, zararli va buzg'unchi mafkuralarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. Mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan mafkuraviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar majmuini, bir so'z bilan aytganda, bu sohada tashkil etilgan ta'lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri bu – bilimdir. Ammo bilimlar ko‘p. Diniy ekstremizm va terrorizm tarafdorlari ham muayyan bilimlarga tayanadilar va uni omma ongiga singdirishga harakat qiladilar. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishi, inson ma’naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bu bir tomondan, ikkinchi tomondan esa bu bilimlar o‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra, Vatan, millat, insoniyat manfaatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lmog‘i kerak. Fuqarolarning asl islom haqida xolis va yetarli bilimga ega bo‘lishlari diniy ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Mafkuraviy immunitetning ikkinchi asosiy unsuri ana shunday bilimlar zamirida shaklanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo‘lsa, uning zamirida yuzaga kelgan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy infeksiyalar yo‘lida mustahkam qalqon bo‘lib xizmat qiladi.

Mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalaridagi mo‘ljal va maqsadlar tizimi bilan bog‘liq. Ana shunday aniq tizim bo‘lmas ekan, xoh alohida inson, xoh millat yoki jamiyat bo‘lsin, goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi amrimaholdir.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g‘oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo‘qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o‘rni katta. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g‘oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy ishlar majmuini to‘g‘ri tashkil etilgan butun tarbiya tizimini qamrab oladi.

Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandni kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta’minlashning asosiy shartlaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Mamlakatimizda fuqarolarning o‘z diniy huquqlarini amalga oshirilishi uchun yaratilgan sharoitlarni diniy tashkilotlar misolida ham ko‘rish mumkin. Hozirda Respublikamizda **2186 ta** diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda. Mustaqillik tufayli ularning faoliyati tom ma’noda tiklandi.

Bundan tashqari, fuqarolarga islom dinining ezgu mohiyatini tushuntirish maqsadida O‘zbekiston musulmonlari idorasining «Hidoyat»

jurnali va «Islom nuri» gazetolari muntazam chop etilmoqda. Respublika televideniyesi orqali «Ziyo» studiyasi va «Hidoyat sari» ko'rsatuvlari muntazam berib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ko'plab diniy madaniy obidalar tiklandi, ta'mirlandi, qayta qurildi, yangi yodgorlik majmualari yaratildi. Buyuk mutafakkirlarimizning yubileylari mamlakatimiz va jahon miqyosida keng nishonlandi. Ro'za va Qurbon hayitlari bayram kunlari deb e'lon qilindi. Davlat tomonidan haj safariga borishga keng imkoniyat yaratildi.

Islom dini millionlab kishilarning dunyoqarash mazmunini tashkil etgan holda ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avlodan-avlodga yetkazishda beqiyos ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda, diniy-ekstremistik va terroristik tashkilotlari ham qo'l qovushtirib o'tirganlari yo'q. Ular hozirgi shiddat bilan o'zgarib borayotgan jahon sivilizatsiyasiga moslashuv, moddellashuv, interpiretatsiya jarayonlarini tunu kun olib borayotganligini sezish mumkin. Dunyoning erishgan barcha fan-texnika yutuqlaridan ortda qolmay, ularning samaralaridan keng foydalanish, yangi uslub va vositalarni qo'llash va ayniqsa, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari bag'rida yashirin va pinhona yacheyka hamda bo'limlarini, filiallari, ofislari (tijoratga oid, erkin ko'maklar berish kabilar)ni ochish va tashkil etishga tinimsiz harakat qilib kelayotganliklarini dunyoning sog'lom kuchlari unutmastliklari kerak. Diniy-ekstremistik oqimlarning mazmuni, mohiyati, maqsad-muddoalarining hozirgi keskin globallashuv jarayonlarida turli-tuman tuslanib turishini oldindan bilish, anglash bugungi o'sib kelayotgan yosh avlodni, shu jumladan ichki ishlar idoralari xodimlarini diniy ekstremizm va terrorizmning har qanday ko'rinishlariga ziyraklik hamda ogohlik bilan shay turishlari talab etilishi dolzarb vazifadir.

2-§. Terrorizm va ekstremizmni vujudga kelishining iqtisodiy-ijtimoiy omillari

O'zbekiston xalqining qobiliyat, zehn-zakovat, tirishqoqlik borasida boshqa millat yoki xalqlardan qolishadigan joyi yo'q. Faqat mavjud intellektual imkoniyatlarimizni to'liq ishga solishimiz, ulardan mukammal tarzda foydalana bilishimiz zarur. Ota-bobolarimiz va ajdodlarimiz shuhratining soyasiga mahliyo bo'lib yuradigan davrlar endi o'tdi. Bugun jahon bizdan o'z so'zimizni aytishimizni, o'z tafakkurimizni namoyon

etishimizni talab qilmoqda. Boshqa xalqlar va millatlar bizga yotsirab, bepisand qaramasligi, balki bizni e'tirof va ehtirom etishlari kerak. Biz ana shu yuksak munosabat va hurmatga loyiq bo'lishimiz darkor. Mamlakatimiz Birinchi Prezidentining «**Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch**» asarida talqin etilganidek, «bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib, kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi»¹.

Terrorizm va ekstremizm ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasida kelib chiqadi. Terrorizm va ekstremizm tahdidi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mavjud bo'lgan hududlarda kuchayadi. Terroristik va ekstremistik guruhlar iqtisodiy qiynalgan shaxslarni moddiy manfaatdorlik evaziga o'z tomoniga og'dirib olishga intiladi. Ko'p hollarda ular o'z maqsadlariga erishadilar. Shu sababli, mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish, aholining ishsiz qatlamini ish bilan ta'minlash va kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy muhofazasini yaxshilash o'z navbatida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashning vositalaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, davlatlararo ziddiyatlar, etnik va diniy ziddiyatlar, qashshoqlik va ishsizlik, mafkuraviy bo'shliq kabi omillar terrorizmni keltirib chiqarishi mumkin.

Terrorizm va ekstremizmning iqtisodiy-ijtimoiy omillari, eng avvalo, jamiyat a'zolari o'rtasidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning mavjudligi, ularni hal etish borasida zaruriy chora-tadbirlarning ko'rilmasligi oqibatida vujudga keladi.

Tarixga nazar tashlansa, har bir davrda global ravishdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa muammolari bo'lganini ko'rish mumkin. Bunday omillar sirasiga ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, aholining kam ta'minlangan qatlamining ijtimoiy muhofazasini yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, shu bilan birga, yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z vaqtida aniqlanishi va bartaraf etilmasligidir.

¹ O'sha manba. – B.30.

Ayniqsa yoshlar tarbiyasiga katta xavf solayotgan, butun jahonda balo-qazodek tarqalib borayotgan «ommaviy madaniyat» xurujlariga qarshi kurashish hayotiy amaliy ahamiyatga egadir. Zero jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni bartaraf etish terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashning muhim usullaridan biri hisoblanadi.

Bu jarayonda, eng avvalo, ishsizlikni bartaraf etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining bandligini yaxshilash va ularning moddiy ehtiyojlarini qondirish hamda ularning erkin mehnat qilish va yashash huquqini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyamizning 13-moddasida mustahkamlanganidek, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Bozor munosabatlari jarayonida mehnat qilish huquqi borasidagi qonunchilik hujjatlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish, bu sohada chuqur islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi, shu munosabat bilan mamlakatimizda aholini ish bilan ta‘minlash, yoshlarni kasbga o‘rgatish, yangi ishchi o‘rinlarini yaratish, aholini ish bilan ta‘minlashda ularning huquqlarini himoya qilish sohasida bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini ijtimoiy hamda huquqiy jihatdan muhofaza qilishni ta‘minlay oladigan huquqiy normalar yig‘indisi yaratildi, bu borada O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan «Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida»gi qonuni va Mehnat kodeksi muhim o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda «Sog‘lom bola sog‘lom va ahil oilaning mevasi bo‘lib, faqatgina sog‘lom onadan sog‘lom bola tug‘iladi»¹

¹ *Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 23 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги «Асосий вазифамиз – жамиятимизни ислоҳ этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат» деб номланган 2015 йилнинг 5 декабрь куни сўзлаган маърузаси // Халқ сўзи. – 2015. – 6 дек.*

deb ta'kidlab, fuqarolarning, onalar va bolalarning sog'lig'ini asrash, ularning har tomonlama ijtimoiy muhofazasini yaxshilash masalalariga alohida to'xtalib o'tdi. Shu bilan birga, o'tgan yillar davomida O'zbekistonda olib borilgan islohotlar jarayonida O'zbekistonimizda barpo etilayotgan eng zamonaviy, ulkan va noyob sanoat obyektlarining barpo etilganligi, jumladan Surg'il koni negizida qiymati 4 milliard dollardan ziyod bo'lgan Ustyurt gaz-kimyoy majmuasi kabi obyektlarning foydalanishga topshirilayotgani, «Jeneral motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda avtomobil dvigatellari ishlab chiqarilayotgani, «MAN» kompaniyasi ishtirokida Samarqand viloyatida yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqaradigan yangi kompleks tashkil etilgani, Yaponiyaning «Isuzu» kompaniyasi bilan birgalikda avtobuslar ishlab chiqarilayotgani, «Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi» mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida «Damas» va «Orlando» yengil avtomobillari ishlab chiqarish o'zlashtirilganini alohida ta'kidlab o'tdi. Mamlakatimizda barpo etilgan ushbu korxonalar o'z navbatida aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatini oshiradi.

Yangi korxonalarni ishga tushirish va faoliyat ko'rsatayotgan obyektlarni modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish hisobidan yurtimizda faqat oxirgi 5 yilning o'zida 5 millionga yaqin yangi ish o'rnini yaratilgani biz uchun nihoyatda muhim bo'lgan masalani yechishda katta amaliy qadam bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **37-moddasida** «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalani huquqiga egadir», **39-moddasida** «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa xollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas» deb belgilangan. Darhaqiqat, mustaqilligimizning dastlabki yillari-dayoq yurtboshimiz aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini davlat tomonidan muhofaza qilish masalasini kechiktirib bo'lmaydigan ustuvor vazifalardan biri sifatida ko'rsatib o'tgan edi.

Shuningdek, «Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi»da ham mehnat qilish huquqi insonning eng muhim tabiiy huquqlaridan ekanligi tan olingan. Ushbu deklaratsiyaning 23-moddasida ta'kidlanganidek: «Har

bir inson mehnat qilish, ishni o'z erki bilan tanlab olish, mehnatning adolatli va qulay sharoitlari bo'lishi va ishsizlikdan muhofaza etilish huquqiga egadir».

Mehnat muhofazasi tegishli qonun va normativ hujjatlar asosida amal qiluvchi, mehnat jarayonida xodim xavfsizligi, salomatligi va ish qobiliyatini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnika-viy, sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

Mehnat huquqida mehnat muhofazasi atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda, ishga qabul qilishdan asossiz bosh tortishni taqiqlovchi, xodimlarni ishdan bo'shatish va boshqa ishga o'tkazishni cheklovchi, ish vaqti chegaralarini belgilovchi hamda boshqa ko'plab qulay mehnat sharoitlari yaratilishiga qaratilgan yo'nalishlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari ishsizlikdan himoyalaniishi, mehnat qonunchiligi asosida mehnat sharoitlari bilan ta'minlashi borasidagi huquqlari qonun va qonunosti hujjatlari bilan qo'riqlanadi va bu boradagi vazifalar vakolatli davlat organlari tomonidan ta'minlanadi, jumladan profilaktika inspektori ham xizmat ko'rsatish hududida ushbu yo'nalishdagi ishlarni tashkil etish, ayniqsa ilgari sudlangan va ijtimoiy reabilitatsiya hamda moslashtirish chora-tadbirlari qo'llanilishi lozim bo'lgan toifadagi shaxslarni ishga joylashtirishda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari bilan hamkorligi lozim. Shu bilan birga, hamkorlik doirasida fuqarolar va voyaga yetmaganlarning mehnat qilish, erkin kasb tanlash va kasb o'rganish borasidagi huquqlarini himoya qiladi, uchragan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish borasida zaruriy ishlarini amalga oshiradi.

Bundan tashqari, terrorizm va ekstremizmning ijtimoiy omillaridan biri aholining huquqiy ongi va bilimining yetarli darajada shakllanmaganligidir. Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularda diniy ma'lumotning yetishmasligi, uni egallashga bo'lgan qiziqish va intilish hamda ishonuvchanlik, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga harakat qilish, ilmiy tilda aytganda, maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. «Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharaflilikka qo'l urgan bo'lasan, kerak bo'lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!», – degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi

xususiyatlarga alohida e'tibor berilayotganini ko'rsatadi. Yoshlarning diniy- ekstremistik guruhlar ta'siriga tushib, turli terrorchilik amaliyotlari ishtirokchisiga aylanib qolishlarining asosiy sababi, ularning na diniy, na dunyoviy bilimga ega emasliklari, sof islom ta'limotini bilmasliklaridir.

Yoshlar ularning ruhiy xususiyatlarini, yaxshi biladigan va o'z g'arazli maqsadlari yo'lida ulardan ustalik bilan foydalanayotgan, xalifalik tuzsak, barcha muammolarimiz hal bo'ladi, deb yurgan hizbchilaru, otabobolarimiz mazhabga amal qilib adashganlar, degan da'voni tarqatayotgan savodsizlarning safsatalariga uchib, aldanib qolmoqdalar, o'z hayotlarini xatarga qo'ymoqdalar, o'z jonlariga qasd qilmoqdalar.

Diniy tafakkurning siyosiylashuv jarayoni global miqyosda, shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasida din sohasidagi siyosat qonuniylik, demokratiya, dunyoviylik va inson huquqlarini ta'minlash tamoyillari asosida olib borilmoqda. Konstitutsiya hamda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda dinning davlatdan ajratilganligi, vijdon va e'tiqod erkinligi kafolatlanganligi hamda diniy ekstremizmga qarshi kurashning huquqiy asoslari ifodalangan.

Fuqarolarning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish muammolarini e'tiborga oladigan bo'lsak, mamlakatimiz ichida o'zlarining g'ayriinsoniy va g'ayriislomiy g'oyalarni tarqatishga harakat qilayotgan diniy ekstremistlar ham ana shunday g'arazli niyatlarini, maqsadlarni, ya'ni yoshlarni chalg'itish, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yo'lidan chetlatishga intiladilar.

Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, ekstremistlar kishilar qalbi va ongini egallashga bor kuch va imkoniyatlarini ishga solishga harakat qilmoqdalar. «Bugungi kunda insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim», deb bejiz ta'kidlamagan edi mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov.

3-mavzu. TERRORIZM VA EKSTREMIZMNING UMUMIY VA MAXSUS PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH

1-§.Terrorizm va ekstremizmning umumiy va maxsus profilaktikasining o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati, huquqiy asoslari.

2-§.Terrorizm va ekstremizmning umumiy profilaktikasining asosiy yo‘nalishlari, chora-tadbirlari.

3-§.Terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasining asosiy yo‘nalishlari, chora-tadbirlari.

1-§.Terrorizm va ekstremizmning umumiy va maxsus profilaktikasining o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati, huquqiy asoslari

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tabiiyki, davlatga kirib- chiqishning xalqaro qoidalari tatbiq qilina boshladi. Natijada elimizga yaxshilar qatori mahalliy an’analarimizga yot turli g‘oyalar ham kirib kelish imkoni tug‘ildi.

Jahon maydonlarida mintaqalar va hududlarni mafkuraviy bo‘lib olishga urinishlar turli yo‘llar bilan amalga oshirilmoqda. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyin mafkura sohasidagi hayot osonlikcha kechmadi. Milliy istiqlol g‘oyasiga zid bo‘lgan yot va begona g‘oyalarning kirib kelishiga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni mamlakatimizda belgilangan ulug‘ maqsadlardan og‘dirishga urinishlar bo‘ldi. Bunday harakatlarning tarafdorlari «do‘st», «millatdosh», «vatandosh», «dindosh» bo‘lib ko‘rinish maqsadida o‘z g‘oyalarni amalga oshirishga urindilar. Natijada, milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan turli xil qarashlar aholi, ayniqsa, yoshlar ongini egallashga harakat qildi.

Hozirgi vaqtlarda terrorizm va ekstremizmning oldini olish va unga qarshi kurash dolzarb muammolardan biriga aylandi. Chunki, bu jarayonlarni o‘zining boshidan o‘tkazgan O‘zbekiston xalqi bunga guvohdir. Uning mudhish oqibatlari natijasida qancha begunoh odamlar, voyaga yetmagan go‘daklar, himoyasiz kishilar qurbon bo‘ldi. Hozirgi vaqtda jamiyatga bo‘lgan xavfi juda kattadir. Terrorizm va ekstremizmning yana bir xavfli tomoni shundaki, bu yo‘lga hozirgi paytda ko‘plab voyaga yetmagan va yoshlarning jalb etilishidir. Buning asosiy sabablaridan biri, hozirgi kunda o‘tish davridagi ba’zi bir qiyinchiliklar, bozor iqtisodiyoti

infratuzilmasining rivojlanayotgan vaqtidagi raqobatga ko'pchilik odamlarning dosh bera olmasligi va hozirgi demokratik huquqiy davlatchilik tuzumiga nisbatan salbiy qarashlarning mavjudligidir va buning oqibatida esa ko'plab yoshlarimizning ongining zaharlanishidir.

Hozirda yer sharida: a) hayotning globallashib va jadallashib borayotganligi; b) jahon hamjamiyatini boshqarish, xalqaro muammolarni hal qilishning demokratik usullariga qarshi zo'rvonlik usullarini qo'llashning kengayib borayotganligi; d) diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm va terrorizmning kuchayib borayotganligi; e) xalqaro uyushgan jinoyatchilikning yangidan-yangi hududlarda, xususan tabiiy va mehnat resurslariga boy bo'lgan mamlakatlarda faoliyat yuritishga borgan sari ko'proq urinayotganligi; f) giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi ortib borayotganligi; g) migratsiya va axborot almashish jarayonlarining kengayib va tezlashib borayotganligi jinoyatchilikning, xususan uning xalqaro uyushgan shakllarining kengayib borishiga xizmat qilmoqda. Bunday vaziyatda jamiyatda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash ushbu huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish va tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki kunlarida jamiyat tinchligi va osoyish-taligiga, jamoat tartibi va xavfsizligiga, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga, qolaversa yosh mustaqil O'zbekistonning konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi tahdidlar quyidagicha namoyon bo'ldi:

– 1992-yilda ekstremistik va buzg'unchilik g'oyalari ostida o'z jinoiy maqsadlarini amalga oshirishga yoshlarni jalb etgan holda Toshkentning talabalar shaharchasida sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar;

– 1992–1993-yillardagi Namanganda diniy-ekstremistik guruhlarining amaldagi konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik ishlatish orqali o'zgartirishga urinishlari;

– 1994–1998-yillar davomida o'z jinoiy faoliyatlarini olib borgan ekstremistik g'oyalarga asoslangan uyushgan jinoiy tuzilmalarning Andijon, Namangan viloyatlarida davlat hokimiyati, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari va xodimlariga nisbatan sodir etilgan qurolli bosqinchiliklari;

– 1999-yil 16-fevralda Toshkent shahrining 5 joyida (Mustaqillik maydonining 2 joyida, IIV poliklinikasi, Milliy bank oldida), bir vaqtning o'zida va oradan bir oz vaqt o'tgandan so'ng terroristlar qo'poruvchilik

uchun tayyorgarlik ko'rgan turar joyda (Chilonzor tumanida) portlashlarning amalga oshirilishi;

– konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik ishlatish orqali o'zgartirish maqsadida O'zbekiston hududida faoliyat olib borgan uyushgan jinoiy tuzilma tomonidan 1999-yil 30-mart kuni Toshkent – Urganch yo'nalishida qatnovchi avtobusda 26 nafar yo'lovchining garovga olinishi¹ va h.k.

Mintaqada tarixan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy aloqalarni izdan chiqarish, do'st va birodar davlatlar, xalqlar va millatlar o'rtasiga nizo solish, keskinlik o'choqlarini keltirib chiqarish uchun turli g'oyaviy, diniy va mafkuraviy vositalar ishga solinmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoqarashi va ma'naviyatida islom dini ning mustahkam o'rin egallaganidan foydalanib, ularga islomiy «saboq» berish, islomni qayta tiklash bahonasida mintaqada diniy ekstremizm va fundamentalizmni keng tarqatish borasida olib borilayotgan qo'poruvchilik harakatlari kuchaydi.

O'zbekiston hukumati tomonidan terrorizm va ekstremizmning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Terrorizm va ekstremizmning oldini olish hamda unga qarshi kurashishda davlat organlari va jamoatchilikning faoliyatini muvofiqlashtirib vazifalarini taqsimlab hamkorligini ta'minlab berdi.

Ma'lumki, Respublikamizda qonun ustuvorligi prinsipiga amal qilinadi va buning hamma tomonidan bajarilishi ta'minlanadi. Qonun oliy yuridik kuchga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida «O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadriyat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi» deb ko'rsatilgan. Bu qoidalar qonunlarimiz bilan tartibga solingan. O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi 1998-yil 1-may qonunida aniq va lo'nda qilib dinga e'tiqod qilish tartib qoidalari belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 573-sonli 1994-yil 29-noyabrda qabul qilingan qaroriga muvofiq Ichki ishlar vazirligi tarkibida Interpolning O'zbekistondagi Milliy markaziy byurosi tashkil etilgan bo'lib, giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi, uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, firibgarlik, qalbaki pul yasash va

¹ Ички ишлар органларининг профилактик фаолияти: Дарслик / И. Исмаилов, М. З. Зиёдуллаев, Н. Т. Исмаилов ва бошқ. – Т., 2011. – В.405.

iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish, respublikada jinoyat sodir etib, xorijda yashirib yurgan jinoyatchilarni qidirish, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquq va manfaatlarini ta’minlovchi axborotlarni xorijdan olish, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha rasmiy va maxfiy (tezkor-qidiruv) ma’lumotlarning almashinuvini ta’minlash kabilarni amalga oshirish bilan terrorizm va ekstremizmni oldini olinishida o‘z o‘rniga ega.

Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlarining terrorizm va ekstremizmning umumiy va maxsus profilaktikasining amalga oshirish muayyan huquqiy asoslar zahirida tashkil etiladi, qonunga asoslanmagan har qanday faoliyat nafaqat huquqiy demokratik davlat prinsiplariga zid, balki amaldagi huquq-tartibotni tanazzulga olib keladi. Shu nuqtai nazardan Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlarining terrorizm va ekstremizmning umumiy va maxsus profilaktikasining amalga oshirish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur normativ-huquqiy hujjatlarni, yuridik kuchiga ko‘ra, ikki guruhga ajratish mumkin qonunlar va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlariga ajratish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi 2000-yil 15-dekabr qonuni terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashning aniq yo‘nalishlarini va maxsus subyektlarini belgilab berdi. Mazkur qonunning 8-moddasida terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi quyidagi davlat organlari ko‘rsatilgan:

- O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi.

Mazkur davlat organlarining terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bo‘yicha vazifalari, majburiyatlari va vakolatlari belgilab berilgan holda umumiy va maxsus profilaktik choralarni amalga oshirishda hamkorlik mexanizmi ham yaratilgan. Qonun asosida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash subyektlari etib belgilangan davlat organlarining faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati nazoratida va rahbarligida amalga oshirilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-mayda «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda shaxs-

ning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, jismoniy shaxslarning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirish, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalar faoliyatining o'zaro hamkorligini ta'minlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish tartiblari yoritildi.

Shu jumladan, mazkur qonun asosida terrorizm va ekstremizmning umumiy va maxsus profilaktikasining tushunchasi va chora-tadbirlari hamda yo'nalishlari ko'rsatib berilgan, jumladan «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunning 22-moddasida «Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha faoliyati huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi» deb ko'rsatilgan bo'lsa, qonunning 24-moddasida «Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi va uni amalga oshirish asoslari qachonki huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi» deb ta'rif berib o'tilgan. Demak, huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi ayrim turdagi huquqbuzarliklarning, shaxslar toifalarining ko'payishi, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishi sabab bo'ladi.

Umumiy profilaktikada ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda targ'ibot-tashviqot ishlarining amalga oshirilishi, mitinglar, davra suhbatlari va ilmiy konferensiyalar tashkil etish va mavjud muammolar

yechimlari yuzasidan taklif va tavsiyalarning ishlab chiqilishida imkoniyatlarining mavjudligi va hokazo.

Terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasi esa alohida reja va ko'rsatmalar asosida terroristik va diniy-ekstremistik oqimlar faoliyati kuchayganda, shuningdek ushbu huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslar toifasining ko'paygan hududlarda amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. Masalan, «Antiterror», «Tozalash» va boshqa shunga o'xshash maxsus profilaktik tadbirlarning o'tkazilishi.

2-§. Terrorizm va ekstremizmning umumiy profilaktikasining asosiy yo'nalishlari, chora-tadbirlari

O'zbekiston Respublikasining terrorizm va ekstremizmning profilaktikasi siyosati Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Terrorizm va ekstremizmning profilaktikasini amalga oshiruvchi ichki ishlar, prokuratura, milliy xavfsizlik xizmati, soliq, bojxona va boshqa organlar esa bu sohadagi davlat siyosatini bevosita amaliyotga tatbiq etadilar. Terrorizm va ekstremizmning profilaktikasining muammolari har bir davlat ichki siyosatining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. O'tgan asrning oxirgi o'n yilligi va XXI asrning dastlabki yillari xalqaro terrorizm deb nomlangan o'ta og'ir va xavfli jinoyatlarni sodir etish bilan bog'liq «xuruj»lar dunyoning turli qit'alarida xohlagan joyni kutilmagan paytda to's-to'polon bilan larzaga sola boshladi. Unga qarshi hamkorlikda kurashish rivojlangan yoinki, rivojlanish yo'lida borayotgan barcha davlatlarning global muammosiga aylandi. Terrorizmga qarshi kurash ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy masalalar qatoridan o'rin egalladi.

Terrorizm va ekstremizmning umumiy profilaktikasi – bu, terrorizm va ekstremizmning profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlarning terrorizm va ekstremizmning oldini olish, uning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha faoliyatidir.

Profilaktika inspektorlari tomonidan terrorizm va ekstremizmning umumiy va maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish bevosita O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining qonunlari: jumladan, 2000-yil 15-dekabrda «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi, 2004-yil 26-avgustdagi «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliya-

lashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi, 1998-yil 1- maydagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi (yangi tahriri), 2008-yil 17-aprel-dagi «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi, 2010-yil 29-sentabr-dagi «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi, 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunlari asosida tashkil etiladi.

«Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunning **23-moddasida** huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasining quyidagi chora-tadbirlari ko'rsatilgan:

– huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

– aholi o'rtasidagi huquqiy targ'ibot;

– huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish hamda huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritish.

Mazkur qonunning talablaridan kelib chiqib, terrorizm va ekstremizmning umumiy profilaktikasining quyidagi asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

– aholi va yoshlar o'rtasida terrorizm va ekstremizmning oldini olish bo'yicha tushuntirish va targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;

– ommaviy axborot vositalarida chiqishlar va turkum maqolalar e'lon qilish;

– ilmiy konferensiyalar, davra suhbatlari o'tkazish va ma'ruzalar o'qish;

– voyaga yetmaganlarga terrorizm va ekstremizmning salbiy oqibatlarini namoyish etuvchi video roliklar va videofilmlar namoyish etish va boshq.

Profilaktika xizmatlari tomonidan terrorizm va ekstremizmning umumiy profilaktikasining quyidagi chora-tadbirlari tashkil etiladi va amalga oshiriladi:

– ma'muriy hududda istiqomat qiluvchi fuqarolar bilan terrorizm va ekstremizmning salbiy oqibatlarini tushuntirish;

– ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qiladi;

– korxonalar, tashkilot, muassasalarda va mahallalarda ma'ruzalar o'qish;

– korxonalar, tashkilot, muassasalarda va mahallalarda mutaxassislar (olimlar, diniy qo'mita vakillari, imom-xatiblar, yuristlar va boshq.) ishtirokida davra suhbatlari tashkil etish;

– maʼmuriy hududda vaqtincha yoki doimiy yashayotgan yoki ishlayotgan chet el fuqarolari, fuqaroligi boʻlmagan shaxslar va fuqarolar bilan korxonalar, tashkilot, muassasalarda va mahallalarda uchrashuvlar tashkil etish, ularga terrorizm va ekstremizmning xavfini tushuntirish;

– aholi gʻavjum joylarda (bozorlar, istirohat bogʻlari, xiyobonlar, asosiy koʻchalar va shu kabi boshqa joylarda) plakatlar va eʼlonlar joylashtirish;

– hududidagi korxonalar, tashkilot, muassasalarda va mahallalar (maktab, kasb-hunar kolleji, akademik litsey, oliy oʻquv yurtlari, xususiy ishlab chiqarish korxonalarida) video roliklar namoyish qilish;

– zaruratdan kelib chiqib ogohlikka chaqiruvchi ovozli matnni eshittirish.

Shuningdek, terrorizm va ekstremizmning oldini olishda aholi gʻavjum joylarda hamda piyodalarning faol harakatlanish yoʻnalishlarida turli targʻibot-tashviqot plakatlarini osib qoʻyish kabi ishlarni amalga oshirish va ogohlikka chaqiruvchi boshqa usullardan foydalanishi mumkin.

Terrorizm va ekstremizmning oldini olish maqsadida profilaktika inspektori hududida joylashgan obyektlarni profilaktik koʻzdan kechiradi va koʻzdan kechirish jarayonida vijdon erkinligini amalga oshirishga toʻsqinlik qiluvchi, ruxsatsiz diniy taʼlim beruvchi, missionerlik bilan shugʻullanuvchi, ekstremistik va terroristik gʻoyalarni targʻib qiluvchi materiallarni tarqatuvchi, ommaviy tarzda tarqatish maqsadida ularni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yoxud saqlovchi, shuningdek faoliyati taqiqlangan tashkilotlar hamda diniy-ekstremistik guruhlariga aloqador boʻlgan shaxslarni aniqlashga alohida eʼtibor qaratishi kerak.

Terrorizm va ekstremizmning umumiy profilaktikasini samarali tashkil etish uchun uning chora-tadbirlarini ish rejalariga kiritish va ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi tartibini aniq belgilab qoʻyish muhim ahamiyat kasb etadi. Terrorizm va ekstremizmning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlarini tashkillashtirish va oʻtkazish jarayoniga, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi boshqa organ va muassasalar (*MXX, prokuratura, bojxona xizmati, soliq xizmati, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari hamda taʼlim va sogʻliqni saqlash muassasalari*) hamda fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini, fuqarolarni jalb etishi mumkin.

Shuningdek, vijdon erkinligini ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi, terrorchilik va ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi, ruxsatsiz diniy ta'lim beruvchi, missionerlik bilan shug'ullanuvchi, shuningdek boshqa faoliyati taqiqlangan tashkilotlar hamda diniy-ekstremistik yo'nalishdagi guruhlarga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlash va ularning faoliyatiga chek qo'yishda ichki ishlar organining sohaviy xizmatlari asosan JQ va UJQK xizmati bilan yaqindan hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar-ning samaradorligi yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, terrorizm va ekstremizmning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlarini zamonaviy usul va shakllarni qo'llagan holda keng jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

3-§. Terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasining asosiy yo'nalishlari, chora-tadbirlari

Terrorizm va ekstremizm ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan jinoyatlardan biri bo'lib, u barcha jamiyat a'zolarining hayotini izdan chiqaradi, mamlakatda notinchliklar va iqtisodiy-siyosiy vaziyatning izdan chiqishiga sabab bo'ladi, eng asosiysi tinchlik va osoyishtalik yo'qoladi. Shu bois ushbu jinoyatlarga qarshi kurash va uni samarali amalga oshirish, imkon qadar tag-tugi bilan qo'porib tashlash jamiyat a'zolarining erkin va farovon hayotini ta'minlaydi.

Terrorizm va ekstremizmning oldini olish va unga qarshi kurashning eng zarur chora-tadbirlaridan biri bu maxsus profilaktikadir.

O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunning 24-moddasida maxsus profilaktikaning tushunchasi keltirib o'tilgan bo'lsa, 25-moddasida ilgari sudlanganlar o'rtasida, 27-moddasida esa voyaga yetmaganlar o'rtasida o'tkaziladigan maxsus profilaktik chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgan ilgari sudlangan shaxslar soni ko'payganda quyidagi maxsus profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o'rtasida terrorizm va ekstremizmning sodir etilishi sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoga hukm qilingan shaxslar o‘rtasida terrorizm va ekstremizmning maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

– terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq jinoyat sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o‘tayotgan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiyaga va ijtimoiy moslashtirishga tayyorlash bo‘yicha maxsus tadbirlarni amalga oshirish;

– terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etib jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirish;

– terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq jinoyat sodir etganligi uchun jinoyat jazoga tortilgan va jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini tashkil etayotgan tashkilotlarni rag‘batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi 2010-yil 29-sentabr qonuni asosida ijtimoiy xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar aniqlanadi, ularni ijtimoiy muhofaza qilish choralari ko‘riladi, jumladan ishga, o‘qishga joylashtirish, kasbga o‘rgatish va boshqa turdagi maxsus profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrda «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi va 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunlari ham terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda uning maxsus profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Mudofaa vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika miqyosida olib borilishi yuzasidan idoraviy-huququiy hujjat ishlab chiqib shu asosida alohida tartibda maxsus profilaktik va tezkor

tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi va har biri o‘zlarining vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Shu bilan birga, ushbu davlat organlari o‘zaro bir-biri bilan terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasini amalga oshirish va tashkil etish bo‘yicha hamkorlikda idoraviy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqadi va shu asosida ishlar olib boradi.

Hududiy Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar boshqarmalari, Davlat bojxona idoralari, Mudofaa bo‘limlari va Favqulodda vaziyatlar idoralari o‘zlarining hududlari miqyosida terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasini amalga oshiradi va ularning faoliyati faqat ushbu hudud yoki mintaqada tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasini olib borishda ishtirok etayotgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo‘yish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasida hamkorlikda harakat qilishlarini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasini amalga oshirishda davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko‘maklashadilar va zarur yordam beradilar.

Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari tomonidan terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasini amalga oshirishda asosan umumxalq bayramlari, siyosiy tadbirlar va ommaviy tadbirlar o‘tkazilishidan oldin yoki o‘tkazilayotgan vaqtda amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, kriminogen vaziyat tahlili natijalariga asosan ma‘muriy hududda yoki u yerda joylashgan alohida obyektida jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishida ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasini amalga oshiradi.

Terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasi ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari tomonidan oshkora va nooshkora usullarda amalga oshirilishi mumkin.

Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari tomonidan terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasini «Antiterror», «Arsenal», «Pasport-viza», «Spitamen», «Tozalash», «Qoradori», «Qidiruv» kabi maxsus hamda tezkor-profilaktik tadbirlari orqali amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2012-yil 25-fevraldagi 49-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan «Tozalash» maxsus tezkor-profilaktik tadbirining o‘tkazilish tartibi bo‘yicha to‘xtalib o‘tamiz. Ushbu buyruq bilan «Tozalash» maxsus tezkor-profilaktik tadbirining namunaviy rejasi ishlab chiqilgan.

Ichki ishlar idoralarining profilaktika xizmatlari tomonidan «Tozalash» tadbiri joylarda tezkor vaziyatni barqarorlashtirish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni o‘z vaqtida fosh etish maqsadida tashkil etiladi.

Namunaviy rejada, avvalambor, huquq-tartibotni ta’minlash, respublikani jinoiy guruhlardan tozalash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish, diniy ekstremistik oqim tarafdorlarini aniqlash, pasport tizimi, respublikaga chet el fuqarolarining kelishi va ketishi tartibini mustahkamlash, noqonuniy ravishda saqlanayotgan qurollarni aniqlash va giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish maqsadida «Tozalash» shartli nomi ostidagi tezkor-profilaktik tadbirni muntazam ravishda o‘tkazib turish lozimligi belgilab qo‘yildi. Bundan tashqari, namunaviy rejada tadbirning maqsadi va vazifalari aniq va ravshan aks ettirildi.

Chunonchi, maqsad va vazifa sifatida quyidagilar belgilangan:

– ichki ishlar idoralari xodimlarini qo‘shimcha kuch va vositalar bilan mustahkamlash orqali temiryo‘l, avtomobil va havo transportida jinoiy niyatdagi yoki boshqa davlatlarda sodir etilgan jinoyati uchun qonun ta’qibidan yashirinish niyatidagi yoki qurol-aslaha, portlovchi moddalar olib kirishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha zarur tartibni ta’minlash;

– respublika hududidan tashqariga moddiy - tovar boyliklarni va oziq-ovqatlarni noqonuniy olib chiqib ketilishiga yo‘l qo‘ymaslik va bunday urinishlarni aniqlash va oldini olish;

– jinoyatlarni ochish, tergov va suddan yashiringan, jazoni ijro etish muassasalaridan, qurolli kuchlardan qochgan jinoyatchilarni qidirish borasidagi operativ - qidiruv tadbirlarni bir maqsadga yo‘naltirilgan holda amalga oshirish;

– kuchli operativ qiziqish uygʻotadigan shaxslar, turli jinoiy tuzilmalar va jinoyatchilarning «obroʻmandlari» va «yetakchilari», shuningdek jinoiy «jamiyat»ning «razborchiklik» va «yigʻuvchilik» kabi jinoiy «anʻana»lariga rioya qiluvchi shaxslar, shuningdek noqonuniy ravishda qurol saqlayotgan shaxslarni aniqlash va ularga qonuniy choralar koʻrish;

– yoʻl-transport hodisasini sodir etib qidiruvda boʻlganlarni, shuningdek olib qochilgan avtomobillarning ehtiyot qismlarini topish maqsadida xususiy avtomobillar taʼmiri bilan shugʻullanuvchi shaxslar, texnik xizmat koʻrsatish stansiyalari, garajlar, avtotransport vositalari turadigan joylarni tekshirish;

– diniy-ekstremistik oqim tarafdorlarini aniqlash, bunday oqim taʼsiriga yoshlarni tushib qolishlarining oldini olish, aholi oʻrtasida ekstremistik-terroristik holatlarni targʻibot qiluvchi shaxslarni aniqlash, ularni qonuniy javobgarlikka tortish ishlarini yoʻlga qoʻyish;

– diniy aqidaparastlar, noqonuniy chiqishlarga urinuvchilar hamda varaqa tarqatuvchilarni aniqlash;

– muqaddam xonadon oʻgʻriligi, avtotransport vositalarini olib qochish, tovlamachilik jinoyati uchun muqaddam sudlangan shaxslarni tekshirish;

– respublikamizga qoʻshni davlatlardan kirib kelayotgan ekstremistik ruhdagi turli xil adabiyot va varaqalarni, ekstremist-terrorchi jangarilarni aniqlash, ularga oʻz vaqtida qonuniy chora koʻrish ishlarini tashkillashtirish;

– noqonuniy valuta operatsiyalari, Oʻzbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar pullarini qalbaki qilish va ularni muomalaga kiritishning oldini olish va aniqlash;

– rangli metall va xomashyoni noqonuniy ravishda sotish va sotib olish hollarini aniqlash va oldini olish borasida tegishli choralarni koʻrish;

– muqaddam sudlanganlar, ichki ishlar boʻlimlarida hisobda turadigan balogʻat yoshiga yetmaganlar, giyohvandlar, ozodlikdan mahrum qilish bilan bogʻliq boʻlmagan jazolarga hukm qilinganlar va tezkor-profilaktik hisobda turgan boshqa shaxslarning hayot tarzini va oʻzini jamiyatda tutishini tekshirish boʻyicha yaxlit tadbirlarini amalga oshirish;

– muhim, oʻta muhim va toifalangan obyektlarning qoʻriqlanishini kuchaytirish, ularning doimiy jangovar holatda boʻlishlarini tekshirish;

– pasport qoidalariga rioya qilinishini taʼminlash, jumladan chet el fuqarolarini, ayniqsa Tojikiston va Afgʻoniston Respublikalaridan kelganlarni, respublika hududida uzoq muddat yashab turgan chet el fuqarolarini tekshirish;

– chet el firmalari va qo‘shma korxonalar, firmalar tomonidan huquqiy tartibotga rioya qilinishini tekshirish;

– giyohvand moddalar, shahvoniy ruhdagi materiallarni tarqatuvchilar, o‘g‘irlangan mollarni olib sotuvchilar, fohishabozlar, valuta operatsiyasi, reket, daydilik, tilamchilik bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni aniqlash maqsadida mehmonxonalar, restoranlar, qahvaxonalar, bozorlar, kino-teatrlar, parklar, videosalonlar, yotoqxonalar, shoh bekatlar, aeroportlar, vokzallar va jinoiy unsurlar to‘planadigan boshqa joylarni tekshirish;

– post-patrul xizmatlarini kuchaytirish, respublika hududida jamoat tartibini saqlashni ta‘minlash;

– mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar xalq xo‘jalik obyektlarida moddiy tovar boyliklarining saqlanishi ustidan nazoratni kuchaytirish;

– davlat va boshqa shakldagi mulklarni talon-toroj qiluvchi shaxslarni aniqlash va ularni ushlab jinoiy javobgarlikka tortish bo‘yicha maxsus reydlarni o‘tkazish;

– fuqarolar va tashkilotlardan belgilangan qonunni buzgan holda saqlanayotgan o‘q-otar qurollar va ularning o‘q-dorilarini olib qo‘yish va tegishli choralarni ko‘rish;

– yo‘l harakati qoidalariga haydovchilar tomonidan rioya qilinishini tekshirish, mast holda avtomashina boshqarayotgan fuqarolarni aniqlab tegishli choralarni ko‘rish;

– tashkilot va korxonalarda, xonadonlarda yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini tekshirish, bunday noxush holatlarning oldini olish maqsadida tegishli choralarni amalga oshirish;

– ko‘cha va boshqa jamoat joylarida tozalik tartibini ta‘minlash uchun kerakli choralarni ko‘rish;

– temir yo‘l transporti yo‘lovchilarining xavfsizligini ta‘minlash.

Tadbirni o‘tkazish tartibi va muddati.

«Tozalash» tadbiri operativ vaziyat murakkablashganda Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar IIBB, Transport IIB va viloyatlar IIB boshliqlarining ko‘rsatmalari bilan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar hududlarida yoki Ichki ishlar vazirining farmoyishi bilan yaxlit respublika bo‘yicha yoki alohida bir mintaqada amalga oshiriladi.

Tadbirni sifatli o‘tkazish maqsadida IIV, IIBB, IIB, TIIB, shahar-tuman IIBlarda tezkor shtablar tuzilib, ular Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIB, Transport IIB, shahar tuman IIB boshliqlari tomonidan boshqariladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar IIBB boshlig‘i, Transport IIB boshlig‘i va viloyatlar IIB boshliqlarining xizmat bo‘yicha o‘rinbosarlari va TIB boshliqlari tuzilgan tezkor shtablarning o‘rinbosarlari hisoblanadi.

Asosiy sohaviy xizmatlar boshliqlari shtab a‘zolari hisoblanadi. Shtab qoshida 3–4 xodimdan iborat (filtr) ishchi guruh tuziladi, ular joylardan tadbir natijalari haqida ma‘lumotlar yig‘ishni amalga oshiradilar.

Tezkor shtablar zimmasiga yuklatilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

– viloyat, shahar-tuman hokimliklari, xo‘jalik tashkilotlari bilan tadbirga mahalla faollarini, keng jamoatchilik va «mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmalari hamda transport vositalarini jalb qilish masalasi bo‘yicha hamkorlik qilish;

– tadbirni o‘tkazish, yo‘nalishlar va tekshirilishi lozim bo‘lgan shaxslar borasidagi rejalarni tayyorlash ustidan nazorat qilish;

– tadbirga jalb qilingan barcha kuch va vositalarni muvofiqlashtirish;

– joylardan tushayotgan ma‘lumotlarni tahlil qilish;

– tezkor vaziyat o‘zgargan holda qo‘shimcha qarorlar qabul qilish;

– tadbir ustidan nazorat qilish va unda bevosita ishtirok etish;

– past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar-tuman va viloyat IIB rahbariyatini muhokama qilish;

– tadbir yakunlarini chiqarish va har kuni yuqori turuvchi idoraga axborotnoma berish;

– tadbir natijalari bo‘yicha yaxshi ko‘rsatkichlarga erishgan xodimlarni mukofotlash va tadbir davomida yomon ko‘rsatkichlarga yo‘l qo‘ygan, o‘z vazifalarga vijdonan yondashmagan xodimlarni intizomiy jazolash haqidagi buyruqlar chiqarish;

– tadbir davomida erishilgan yaxshi ko‘rsatkichlarni keng ommaga yetkazish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish ishlarini tashkil etadi.

Tadbirga quyidagi kuch va vositalar jalb qilinadi:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIB, Transport IIB, shahar-tuman IIB shaxsiy tarkibi;

– O‘zbekiston Respublikasi IIV o‘quv yurtlari tinglovchi va kursantlari, boshlang‘ich tayyorlov maktablarning shaxsiy tarkibi;

– «mahalla posboni» jamoat tuzilmalari;

- fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari;
- mahalliy hokimiyat vakillari;
- boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idora xodimlari;
- keng jamoatchilik;
- kerakli miqdorda transport va aloqa vositalari.

Tadbirga jalb qilingan ichki ishlar idoralari xodimlari 5 kishidan kam bo‘lmagan guruhlariga bo‘linadi. Guruh profilaktika inspektori, tezkor xizmat, jamoat tartibini saqlash, YHX, yong‘in xavfsizligi xodimlaridan tashkil qilinib, ularning oldiga mazkur rejaning 1-bo‘limida qayd etilgan vazifalar qo‘yiladi.

Shahar-tuman IIB va hududiy transport IIB boshliqlari zimmasiga:

- qidiruvda bo‘lgan jinoyatchilar, bedarak yo‘qolgan shaxslar, ma’-muriy nazorat ostida bo‘lganlar, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarga hukm qilinganlar, spirtli ichimliklarni muntazam ichuvchi shaxslar, giyohvandlar, profilaktik hisobda turuvchi voyaga yetmaganlar, chet el fuqarolari, chet el va qo‘shma firmalar, mehmonxonalar, restoranlar, qahvaxonalar, jinoiy unsurlar to‘planadigan joylar, muqaddam sudlangan shaxslar, diniy-ekstremistik oqim a‘zolari va tadbir davomida tekshiriladigan obyektlar ro‘yxatini tayyorlash;

- berilgan kuchlarni xizmatga olib borish va olib kelish ishlarini tashkil etish;

- tadbirlarda jamoatchilik vakillarining qatnashishini tashkillashtirish uchun kerakli choralarni ko‘rish;

- olib kelingan va ushlanganlarni tekshirish uchun tergov xizmati xodimlari boshchiligida filtr guruhlarini tuzish;

- tadbir chog‘ida shahar-tuman IIBda prokuratura va sud xodimlari navbatchiliklarini tashkil qilish uchun ko‘rsatilgan idoralarga xatlar kiritish vazifalari yuklatildi.

Tadbir yakunlarini umumlashtirish.

Tadbir yakuni bo‘yicha chaqiruv har kuni quyidagi vaqtlar bilan belgilangan:

- shahar-tuman IIB hududiy Transport IIBlarida soat 21.00dan 23.00gacha.

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIB va transport IIBlarida soat 23.00dan 01.00gacha.

- O‘zbekiston Respublikasi IIVda soat 06.00dan 08.00gacha.

Barcha joylarda hisobot varaqasi aniq sonlar bilan to'ldirilib, aniq misollar keltirgan holda yuqori ichki ishlar idoralariga yuborilishi amalga oshiriladi.

Agarda keng qamrovli «Tozalash» maxsus tezkor-profilaktik tadbiri respublika miqyosida amalga oshirilishi ko'zda tutilsa, unda tadbirni o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi IIV tezkor shtabi quyidagi tarkibda tashkil etiladi: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining xizmat bo'yicha o'rinbosari umumiy rahbar etib, o'rinbosarlari sifatida esa O'zbekiston Respublikasi IIV HOOBB va TIB boshliqlari tayinlanadi.

Tezkor shtab a'zolari:

- O'zbekiston Respublikasi IIV PPX va JTSBB boshlig'i;
- O'zbekiston Respublikasi IIV YOXB boshlig'i;
- O'zbekiston Respublikasi IIV Qo'riqlash» RB boshlig'i;
- O'zbekiston Respublikasi IIV XCHK va FRB boshlig'i;
- O'zbekiston Respublikasi IIV YHXBB boshlig'i;
- O'zbekiston Respublikasi IIV JQ va TQKBB boshlig'ining birinchi o'rinbosari;

– O'zbekiston Respublikasi IIV IHT va OAVBAQB boshliqlaridan tarkib topadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xuddi shunday tezkor shtablar Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, Transport IIB va viloyatlar IIBlarida hamda shahar-tuman IIBlari hududlarida ham tuzilishi belgilangan.

Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmatlari tomonidan terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasini maxsus, tezkor-profilaktik tadbirlar orqali amalga oshiradi. Har bir maxsus, tezkor-profilaktik tadbirlar yuzasidan idoraviy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi va ushbu hujjatlarda maxsus, tezkor-profilaktik tadbirlarga jalb qilinadigan xodimlarning soni, kuch va vositalarning taqsimoti, jalb etiladigan texnik vositalar, ishchi guruh tarkibi, shtab va xodimlarning xizmat vazifalari kabi ma'lumotlar aniq qilib kiritiladi va yakka boshchilikda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda barcha davlat organlari, shu jumladan ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari o'zaro hamkorlikdagi faoliyati samarali natijalarni keltirib chiqaradi. Hamkorlikda asosiy e'tibor fuqarolarning huquqiy ongi, ma'naviyati yuqori bo'lishiga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

4-mavzu. TERRORIZM VA EKSTREMIZMNING YAKKA TARTIBDAGI VA VIKTIMOLOGIK PROFILAKTİKASINI TASHKIL ETISH

1-§. Terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati.

2-§. Terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi profilaktikasining asosiy yo'nalishlari, chora-tadbirlari.

3-§. Terrorizm va ekstremizmning viktimologik profilaktikasining asosiy yo'nalishlari, chora-tadbirlari.

1-§. Terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati

O'zbekistonda sodir etilgan terroristik aktlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda diniy ekstremizm terrorizmning asosiy manbalaridan biridir.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismining bir qator moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlar asosan diniy ekstremizm bilan bog'liq holda sodir etilmoqda. Ushbu qilmishlarni ular tajovuz qilayotgan obyektlarga qarab quyidagi besh guruhga: fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga; tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga; O'zbekiston Respublikasiga; boshqaruv tartibiga; jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotlar va kuzatishlarga ko'ra, bugungi kunda diniy ekstremizm bilan bog'liq holda amaldagi Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan quyidagi jinoyat qilmishlar sodir etilmoqda: vijdon erkinligini buzish (JK 145-modda); terrorizm (JK 155-modda); milliy, irqiy yoki diniy adovat qo'zg'atish (JK 156-modda); davlatga xoinlik qilish (JK 157-modda); O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish (JK 158-modda); O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish (JK 159-modda); josuslik (JK 160-modda); qo'poruvchilik (JK 161-modda); faoliyat bilan litsenziyasiz foydalanish (JK 190-modda); jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish (JK 216-modda); g'ayri-

qonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash (JK 216¹-modda); diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (JK 216²-modda); diniy ta‘limotdan saboq berish tartibini buzish (JK 229²-modda); jinoiy uyushma tashkil etish (JK 242-modda); jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni oshkorlashtirish (legallashtirish) (JK 243–modda); ommaviy tartibsizliklar (JK 244-modda); jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash va tarqatish (JK 244¹-modda); diniy-ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish (JK 244²-modda); kontrabanda (JK 246-modda) kabi jinoyatlar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda diniy ekstremizm bilan bog‘liq holda sodir etilgan jinoyatlarning 42,0 foizini jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soluvchi materiallar tayyorlash va tarqatish, 35 foizini konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilish, 10 foizini diniy-ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish, 8 foizini milliy irqiy va diniy adovat qo‘zg‘atishi hamda kontrabanda, shuningdek qolgan 5 foizini jinoiy uyushmalar tashkil etish kabi jinoiy qilmishlar tashkil etmoqda.

Ichki ishlar organlarining diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha faoliyatini huquqiy ta‘minlovchi normalarning amaliyotda qo‘llanishini doimiy ravishda monitoring qilish va uning natijalari asosida takomillashtirib borish ichki ishlar organlarining diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarning profilaktikasini to‘g‘ri va samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun Respublikamizda ushbu faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy asoslar zamon talabidan kelib chiqib shakllantirilgan.

Terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi qonuni va boshqa qonunlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining «Huquqbuzarliklar profilaktikasini ta‘minlash, profilaktika inspektorlari va militsiya tayanch punktlari faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi yo‘riqnomasi, shuningdek,

terrorizmning yakka va umumiy profilaktikasini tashkil etishda profilaktika inspektorlari davlatlararo shartnomalar normalariga, jumladan 1999-yil 4-iyunda Minsk shahrida MDH davlatlarining «MDHga a'zo davlatlarining Terrorizmga qarshi kurashda hamkorligi haqidagi shartnomasi», O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 26- maydagi «Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida Terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizmga, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi hamda tomonlarning barqarorligi va xavfsizligiga boshqacha tahdidlarga qarshi kurash yuzasidan hamkorlikdagi harakatlar to'g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish haqida»gi qarorlari asosida tashkil etadi.

Profilaktika inspektorlarining terrorizm profilaktikasi bo'yicha faoliyati xalqaro hujjatlar asosida ham belgilanishi mumkin. Masalan, 1979-yil 17-dekabrda Nyu-York shahrida imzolangan «Garovga olishga qarshi xalqaro konvensiya», 1997-yil 15-dekabrda «Bomba orqali sodir etiladigan terrorizmga qarshi kurash haqidagi xalqaro konvensiya»lari talablariga ham amal qiladi.

Ma'lumki, jamiyatda uchraydigan g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar, huquqbuzarlik yoki jinoyat diniy ekstremizm oqim a'zolari va diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyat qanday sabab va sharoitda sodir etilmasin, albatta aybdor shaxs, ya'ni huquqbuzar yoki jinoyatchi tomonidan sodir etiladi.

Terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi profilaktikasi fuqarolarni tarbiyalash tizimining elementlaridan biri bo'lib, diniy ekstremizm oqim a'zolari va diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyat, xususan g'ayriijtimoiy xulqning eng oxirgi darajasigacha yetishiga, ya'ni jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmishlarni sodir etishga yo'l qo'ymaslikdan iborat cheklangan vazifani hal qiladi.

Yakka tartibdagi profilaktik faoliyatini tashkil etishning maqsadi, diniy ekstremizm oqim a'zolari va diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularni o'rganish, ta'sir etish, ularning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish hamda ularga salbiy ta'sir etuvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning diniy ekstremizm oqim a'zolari va diniy ekstremizm bilan bog'liq g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning

hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga doir faoliyati huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshiradi.

Diniy ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi oqim a'zolarining, ijtimoiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-maishiy sharoitlari va turmush tarzi, shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvorini, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligini, shuningdek diniy ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik darajasini tavsiflovchi boshqa omillar hisobga olingan holda belgilanadi.

Terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini qo'llash uchun shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvoridan, uning huquqbuzarlik sodir etishga moyilligidan yoxud u huquqbuzarlik sodir etganligidan dalolat beruvchi ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi asos bo'ladi.

Terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning majburlovchi va cheklovchi xususiyatdagi yakka tartibdagi profilaktikasi qonunda nazarda tutilgan asoslarda qo'llaniladi.

Yakka profilaktikani amalga oshirish jarayonida terrorizm va diniy ekstremizm oqim a'zolari va huquqbuzarning xulq-atvorini o'rganish, kerakli profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida profilaktika suhbatlari o'tkaziladi.

Terrorizm va diniy ekstremizm oqim a'zolari bilan olib boriladigan profilaktika suhbatlari shaxsni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishontirishdan, g'ayriijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirishdan iborat bo'ladi.

Profilaktika suhbatlari terrorizm va diniy ekstremizm oqim a'zolari, shu kabi jinoyat sodir etishi mumkin bo'lgan shaxsni profilaktik hisobga qo'yish chog'ida ham o'tkaziladi.

Viktimologiya kriminologiya fanida jinoyatchilikdan jabrlanganlar, ya'ni jinoyat qurbonlari to'g'risidagi ta'limot «viktimologiya» (lotin tilida «victima» – jabrlangan, qurbon; «logos» – ta'limot) deb e'tirof etilgan.

Keng ma'noda viktimologiya nafaqat huquqbuzarlik, jinoyatchilik natijasida jabrlanganlarga yetkazilgan zararni o'rganadi, balki baxtsiz hodisa, tabiiy ofat, urush, genotsid, davlatning noto'g'ri siyosati oqibatida yuzaga kelgan jabrlanishlarni ham o'z ichiga oladi.

Kriminologiya fanida huquqbuzarlik jabrlanuvchilarining ularga nisbatan jinoiy qilmishning sodir etilishiga aloqadorligi haqidagi ilk fikrlar XVIII asrda vujudga kelganligi qayd etilgan.

Nemis kriminolog olimi Sara Morjori Freyning (1894–1958) huquqbuzar, jinoiyatchi va jabrlanuvchilarni yarashtirish muammolari bilan shugʻullanganligi ham tarixdan yaxshi maʼlum. Huquqbuzarliklarning sodir etilishida ularning jabrlanuvchilariga aylangan shaxslar xatti-harakatining aloqadorligini alohida omil sifatida oʻrganish XX asrning birinchi yarmida yanada rivojlandi. Nemis olimi Gans fon Gentingning 1948 yilda chop etilgan «Jinoiyatchi va qurbon» asarida jabrlanuvchining qilmishini unga nisbatan jinoyat sodir etilishida asosiy omil deb koʻrsatgan. Gans fon Genting jinoyatni, uni sodir etgan shaxs bilan uning qurboni oʻrtasidagi oʻziga xos munosabat oqibati ekanligini taʼkidlagan.

Hozirgi kunga kelib viktimologiya nafaqat kriminologiyaning alohida yoʻnalishi, balki undan alohida fan sifatida ajralib chiqish imkoniyatiga ega taʼlimotlar tizimidir. Oʻzbekistonda huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishda **viktimologik profilaktikani amalga oshirishda** alohida eʼtibor berilmoqda.

Viktimologiya – terrorizm va ekstremizmning viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishning jinoiy tajovuz obyektiga aylantiruvchi, jinoiy aloqadorlik tavsifi va darajasini belgilovchi ularga xos tipik xususiyatlar, shuningdek terrorizm va ekstremizm kabi jinoyat qurbonlarining mustaqil oʻz manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish va bu qobiliyatini kuchaytirish vositalari haqidagi kriminologik taʼlimotdir.

Terrorizm va ekstremizm kabi jinoyat qurboni – bu jinoiy tajovuz qilingan jismoniy yoki yuridik shaxs. Ushbu kriminologik tushuncha, shuningdek diniy oqimga adashib aʼzo boʻlib qolish hamda jinoyat qurboni boʻlish ehtimoli yuqori boʻlganlarni ham oʻz ichiga oladi. Jinoyat qurboni boʻlish ehtimoli yuqori boʻlganlar – bu oʻzi bilan bir xil boʻlgan boshqa ijtimoiy subyektlarga qaraganda unga nisbatan jinoiy tajovuz ehtimoli yuqori boʻlishini kuchaytiruvchi xususiyatlarga ega boʻlgan shaxs.

Terrorizm va ekstremizm kabi jinoyat qurboni kriminologik jihatdan jabrlanuvchi degan huquqiy tushunchadan keng. Kriminologiyada terrorizm va ekstremizm kabi jinoyat qurbonini oʻrganishda asosiy eʼtibor jinoyat sodir etishga sharoit yaratib bergan xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

2-§.Terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi profilaktikasining asosiy yo‘nalishlari, chora-tadbirlari

Ichki ishlar idoralarining profilaktika inspektorlari tomonidan terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi profilaktikasining asosiy yo‘nalishlari, chora-tadbirlari ma‘muriy hududda g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, shu kabi jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning hisobini yuritish, tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish orqali ularni axloqan tuzatish, ularda ijtimoiy hayotga mos xulq-atvor va turmush tarzini shakllantirish, shuningdek huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarni huquqbuzarlikning qurboniga aylanish xavfining mavjudligi, xavf tug‘dirayotgan huquqbuzarlikning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar, huquqbuzarliklarni sodir etish usuli, shakli va vositalari to‘g‘risida xabardor qilish, ularni ogohlikka, hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektorlari terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishda shaxsning, uning ijtimoiy muhiti-ning o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-maishiy sharoitlari va turmush tarzi, shaxsning g‘ayriijtimoiy xulq-atvorini, huquqbuzarlik sodir etishga moyil-ligini, shuningdek sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik dara-jasini tavsiflovchi va boshqa omillarni hisobga olishni amalga oshiradi.

Terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlarini profilaktika inspektorlari O‘zbekiston Respublikasining «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi, «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunlari talablariga, ushbu yo‘riqnoma va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Voyaga yetmaganlar tomonidan terrorizm va ekstremizm kabi jinoyat-lar kelib chiqishining oldini olish uchun yakka tartibdagi profilaktik ishlar profilaktika inspektorlari va voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzar-liklarning profilaktikasi inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

Terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi profilaktikasini profi-laktika inspektori profilaktika suhbat, rasmiy ogohlantirish, huquqbuzar-liklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to‘g‘risida xabardor qilish, ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish, profilaktik hisobga olish, majburiy davolanishga

yuborish, ma'muriy nazorat va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa profilaktik chora-tadbirlar orqali amalga oshiradi.

Profilaktika inspektorlari profilaktika suhbatini ma'muriy hududda xizmat olib borish vaqtida g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, **terrorizm va ekstremizm** kabi jinoyatlarni sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan hamda profilaktik hisobga olingan shaxslarga nisbatan uni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishontirish, g'ayriijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirish maqsadida amalga oshiradi.

Profilaktika suhbatini amalga oshirish jarayonida profilaktika inspektori «ishontirish usulining ustuvorligi», «ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini farqlash va yakka tartibdagi yondashish» prinsiplariga qat'iy rioya qilishi kerak.

Profilaktika inspektori profilaktika suhbatini MTPda, shuningdek shaxsning yashash, o'qish, ish joyida yoxud bevosita g'ayriijtimoiy xulq-atvor yoki huquqbuzarlik aniqlangan joyda o'tkazadi.

Profilaktika inspektori diniy oqim xayrixohlari bilan profilaktika suhbatini amalga oshirganligi haqida «Profilaktika suhbatini qayd etish» kitobiga qayd etadi hamda unga kelgusida jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etmaslik holatlarini davom ettirmaslik, aks holda qonunda belgilangan ma'muriy javobgarlik kelib chiqishi mumkinligini tushuntiradi.

Profilaktika suhbatini amalga oshirgan profilaktika inspektori suhbat davomida diniy oqim xayrixohlari bilan o'ziga xos xususiyatlari, uning turmush tarzi va ijtimoiy-maishiy yashash sharoitlari, shuningdek g'ayriijtimoiy xulq-atvorning yoki sodir etilgan huquqbuzarlikning sabablari va shart-sharoitlari aniqlashi va bu haqda kitobga qayd etishi lozim.

Profilaktik hisobga olingan shaxslarga nisbatan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarini muayyan shaxsga nisbatan, har bir shaxsning ijtimoiy xavflilik holati, u sodir etgan huquqbuzarlik tasnifi, turini hisobga olingan holda samarali amalga oshirish uchun profilaktika inspektori o'ziga birlashtirilgan ma'muriy hududda yashaydigan bunday shaxslarni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarning maxsus qismlarida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar obyektlaridan kelib chiqqan holda toifalarga ajratgan holda ularga nisbatan hisob profilaktika ishlarini, shuningdek ular bilan olib borilgan profilaktik

ishlar natijalari bo'yicha hisobotlarni yuritadi, har bir toifaga alohida kod raqamlari belgilanadi:

konstitutsiyaviy tuzumga qarshi hamda boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qilish bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar (*JKning 157, 158, 159, 160, 161, 162, 163, 216, 216¹, 216², 217, MJtKning 201, 202, 202², 240, 241-moddalari*) kodi «profilaktik hisob toifasi (PHT)-01»;

tinchlik va fuqarolarning xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etganlar (*JKning 150, 151, 152, 153, 154, 154¹, 155, 156-moddalari*) kodi «PHT-02»;

jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi huquqbuzarlik sodir etganlar (*JKning 242, 243, 244, 244¹, 244², 244³, 245, 246, 247, 248, 249, 250, 251, 251¹, 252, 253, 254, 255, 255¹, 256, 257, 257¹, 258, 259, 277, 278-moddalari, MJtKning 183, 184, 184¹, 184², 184³, 187-moddalari*) kodi «PHT-06».

Diniy ekstremizm oqimi a'zolarini profilaktik hisobga qo'yish uchun bir qancha asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, asoslarning har biri bo'yicha alohida-alohida profilaktik hisobga olish amalga oshiriladi, bitta hisob profilaktika ishi yuritiladi va har bir toifa alohida ko'rsatiladi.

Agar diniy oqim xayrixohlari turli sabablarga ko'ra yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan va qaytib kelsa shaxslarni aniqlab har biri bo'yicha «Uzoq muddatga ketganligi haqida ma'lumot» varaqasi to'ldirilib, tezkor xizmatlarga taqdim etib boriladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunning 36-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan asoslardan biri mavjud bo'lganda, profilaktik hisobga olishni amalga oshirish uchun profilaktika inspektori shaxsni profilaktik hisobga qo'yish to'g'risida shahar, tuman ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan qaror chiqaradi.

Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini diniy ekstremizm oqim a'zolari va diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyat sodir etganligi uchun jazoni o'tab qaytgan, shuningdek ilgari sudlangan shaxslarning hisobini yuritish, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish orqali axloqan tuzatish, ularda ijtimoiy hayotga mos xulq-atvor va turmush tarzini shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektorlari diniy ekstremizmning yakka tartibdagi profilaktikasi profilaktika suhbatlari, rasmiy ogohlantirish, diniy ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar to'g'risida xabardor qilish, profilaktik hisobga

olish, ma'muriy nazorat va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa profilaktik chora-tadbirlar orqali amalga oshiradi.

Profilaktika inspektorlari tomonidan profilaktika suhbatlari ma'muriy hududda diniy ekstremizmga moyil bo'lgan, shu turdagi huquqbuzarlik sodir etgan va profilaktik hisobga olingan shaxslarga nisbatan uni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga ishon-tirish, g'ayriqonuniy xulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini ham-da huquqbuzarlik sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntirish maqsadida amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektorlari diniy ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etganligi uchun ilgari sudlangan shaxslarning qonunga asosan profilaktik hisobga oladi. Ma'muriy nazorat qonun ta'siri ostiga tushuvchi bu toifa shaxslarga nisbatan asos bo'luvchi hujjatlarni to'playdi va sudga taqdim etadi hamda sud qarori asosida ma'muriy nazorat o'rnatadi. Yuqoridagi keltirilgan toifadagi shaxslar bilan profilaktika inspektorlari yakka tartibdagi profilaktik ishlarni tashkil etishda inson sha'ni va qadr qimmatini hamda huquq va erkinliklarini poymol etmasligi shart.

Diniy-ekstremistik oqim a'zolari bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni tashkil etishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

1) diniy-ekstremistik g'oyalarning noto'g'riligini tushuntirishga va uni normal turmush tarzini tanlashiga;

2) jamiyatda o'z o'rnini topishi va ishga joylashishi hamda ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishiga, bunda ushbu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirish choralarini ko'radi;

3) avvalgi xatti-harakatlarini davom ettirmasligi uchun ular ustidan xufyona nazorat ishlarini tashkil etishga;

4) mahallada uning harakatlarini muhokama etish va unga jamoatchi tarbiyachi biriktirish hamda keng jamoatchilikning yordamidan unumli foydalanishga.

Profilaktika inspektorlari terrorizmning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishda quyidagilarni amalga oshiradi:

– uzoq vaqt uyda bo'lmagan va bedarak yo'qolgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarga;

– narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy savdosi bilan shug'ullanuvchi guruhlar va shaxslarni aniqlash va ularga chek qo'yish chora-tadbirlarini belgilash;

– terroristik tashkilotlar aʼzolari boʻlgan shaxslarni aniqlash, ularni tegishli javobgarlikka tortish choralarini koʻrish;

– muqaddam terrorizm jinoyatlarini sodir etishda ishtirok etgan, jinoiy jazoni oʻtab qaytgan va shunga moyil boʻlgan shaxslarni profilaktik hisobga olish va ular bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarini olib borish.

Oʻzbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurashish toʻgʻrisida»gi 2000-yil 15-dekabr qonunining **6-moddasida** terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek fuqarolar terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga koʻmaklashadilar va zarur yordam beradilar deb koʻrsatib oʻtilgan. Shulardan kelib chiqib, profilaktika inspektorlari terrorizmning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishda boshqa subyektlarning yordamidan unumli foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Qonunning **8-moddasida** Oʻzbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati; Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi; Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bojxona qoʻmitasi; Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi; Oʻzbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi terrorizmga qarshi kurashuvchi asosiy subyektlar sifatida eʼtirof etilgan. Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qoʻyish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasida hamkorlikda harakat qilishlarini taʼminlash Oʻzbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Qonuning **10-moddasida** Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari quyidagicha belgilangan:

– terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qoʻyish hamda uning oqibatlarini minimallashtirish yoʻli bilan terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiradi;

– alohida muhim, kategoriyalangan va boshqa obyektlarning qoʻriqlanishini va xavfsizligini taʼminlaydi;

– davlat hokimiyati va boshqaruvning tegishli organlariga terrorchilik faoliyatiga aloqador shaxslar, guruhlar va tashkilotlar toʻgʻrisida axborot taqdim etadi.

Terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirishda quyidagilarni amalga oshiradi:

– uzoq vaqt uyda bo‘lmagan va bedarak yo‘qolgan shaxslar haqidagi ma’lumotlarga;

– narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy savdosi bilan shug‘ullanuvchi guruhlar va shaxslarni aniqlash va ularga chek qo‘yish chora-tadbirlarini belgilash;

– terroristik tashkilotlar a‘zolari bo‘lgan shaxslarni aniqlash, ularni tegishli javobgarlikka tortish choralari ko‘rish;

– muqaddam terrorizm jinoyatlarini sodir etishda ishtirok etgan, jinoiy jazoni o‘tab qaytgan va shunga moyil bo‘lgan shaxslarni profilaktik hisobga olish va ular bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarini olib borish.

3-§. Terrorizm va ekstremizmning viktimologik profilaktikasining asosiy yo‘nalishlari, chora-tadbirlari

Profilaktika inspektorining terrorizmdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo‘llashga doir faoliyati terrorizmning viktimologik profilaktikasidir.

Terrorizm va ekstremizmning **viktimologik profilaktikasi bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiradi:**

– terrorizmning salbiy oqibatlari, uning kelib chiqish sabablari va imkon bergan sharoitlari to‘g‘risida aholi, ta’lim maskanlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlarda huquqiy targ‘ibot ishlarini tashkil etish;

– aholi turar joylarida xavfsizlikni ta’minlash maqsadida tegishli kommunal xizmat xodimlari bilan birgalikda binolarning yerto‘la va chordoqlarini tekshirish;

– ma’muriy hududda mavjud bo‘lgan noturar obyektlar (korxonalar, tashkilotlar, muassasa, savdo nuqtalari, shaxobchalar, kompyuter va internet klublari, tashlandiq va qarovsiz binolar)ni kuzatuvga olish;

– terrorizmdan jabrlanuvchilarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o‘tkazish;

– huquqbuzarlikdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o‘zini o‘zi mudofaa qilish usullari va vositalari to‘g‘risida xabardor qilish;

– g‘ayriijtimoiy xulq-atvor, tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan terroristik harakat to‘g‘risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish;

– terrorizm profilaktikasining zamonaviy usullari to‘g‘risida elektron adabiyotlarni tarqatish.

Profilaktika inspektorlarining terrorizmning profilaktikasi bo‘yicha faoliyati o‘ta dolzarb va murakkab vazifalardan bo‘lib, ushbu ishlarni tashkil etishda yuksak bilim, ko‘nikma va malakalar talab etadi.

Terrorizm va ekstremizm kabi huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi profilaktika inspektorlari tomonidan ma‘muriy hududda fuqarolarning yoki muayyan shaxslarning terrorizm va ekstremizm kabi huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimolini kamaytirish maqsadida:

terrorizm va ekstremizm profilaktikasi bo‘yicha huquqbuzarliklarni sodir etilishida jabrlanuvchilarning tutgan o‘rnini hamda jabrlanishning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish;

aholiga va uning alohida toifalariga jabrlanish xavfini tug‘dirayotgan terrorizm va ekstremizm kabi huquqbuzarliklar haqida ma‘lumotlar berish, bu borada ularni ogohlikka va hushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektori terrorizm va ekstremizmga oid jinoyat va huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora tadbirlarini O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi to‘g‘risida»gi qonuni «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi, «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni, voyaga yetmaganlar o‘rtasida «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuni talablari asosida amalga oshiradi.

Profilaktika inspektorlari tomonidan terrorizm va ekstremizmning viktimologik profilaktikasi ma‘muriy hududda ko‘p sodir etilayotganligi yoki ijtimoiy xavfi oshib borayotgan huquqbuzarliklar yoxud ma‘lum bir toifadagi shaxslarning jabrlanish ko‘rsatkichining tobora oshayotganligi bilan kriminogen vaziyat barqarorligiga tahdidlar kuchaygan hollarda, ma‘lum bir turdagi huquqbuzarlik hamda jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan ma‘lum bir toifadagi shaxslar xususiyatidan kelib chiqib, targ‘ibot-

tashviqot yoki boshqa turdagi profilaktik chora-tadbirlar asosida fuqarolarni ogohlikka, hushyorlikka va xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya etishga chorlash va bunga erishish maqsadida amalga oshiriladi.

Terrorizm va ekstremizm kabi jinoyat va huquqbuzarliklarni aniqlash va ko'rib chiqish jarayonida profilaktika inspektorlari jabrlanuvchilarning shaxsini, huquqbuzarlik sodir etilishidagi o'rni va rolini, jabrlanishning sababi va unga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlaydi hamda bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Profilaktika inspektorlari terrorizm va ekstremizmning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organ va muassasalar va «Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalar», shuningdek qutqaruv xizmatlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlari terrorizm va ekstremizm kabi viktimologik profilaktik faoliyatining asosiy obyektlariga quyidagilar kiradi:

- bilim saviyasi yuqori bo'lmagan shaxslar;
- ishonuvchan sodda odamlar;
- tadbirkorlar;
- beparvo shaxslar;
- haydovchilar;
- tungi qorovullar;
- axloq-odob doirasidagi huquqbuzarliklar sodir etuvchi shaxslar;
- internet saytlaridan ish qidirib turli e'lon va ma'lumotlarni istab, o'zi anglamagan holda taqiqlangan diniy-ekstremistik ruhdagi saytlarga kirib qoluvchi shaxslar va boshq.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda bugungi kunda terrorizm va ekstremizm ta'siriga tushgan shaxslarning aksariyatini ayollar va voyaga yetmaganlar tashkil etadi. Terrorizm va ekstremizmning ta'siriga tushgan shaxslarning ko'pchiligi huquqiy bilimlarga ega emasligi aniqlangan. Shu bois terrorizm va ekstremizmning viktimologik profilaktikasini tashkil etishda fuqarolarning huquqiy bilimlarni hamda ularda «mafkuraviy immunitet»ni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

5-mavzu. **HUDUDIY PROFILAKTIKA
INSPEKTORINING TERRORIZM VA DINIY
EKSTREMIZM PROFILAKTIKASI BO‘YICHA HAMKORLIGI**

1-§. Profilaktika inspektorining terrorizm va ekstremizmning profilaktikasi bo‘yicha ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy asoslari.

2-§. Profilaktika inspektorining terrorizm va ekstremizmning profilaktikasi bo‘yicha boshqa davlat organlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy asoslari.

3-§. Profilaktika inspektorining terrorizm va diniy ekstremizm profilaktikasi bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda nodavlat, notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy asoslari.

1-§. Profilaktika inspektorining terrorizm va ekstremizmning profilaktikasi bo‘yicha ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy asoslari

Bugungi kunda terrorizm va diniy ekstremizm balosiga qarshi kurashish ichki ishlar organlarining bir qator xizmatlarining asosiy faoliyat yo‘nalishi sifatida belgilangan. Shular qatorida aynan diniy ekstremizm hamda terrorizm profilaktikasini amalga oshirish huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy subyektini hisoblangan profilaktika xizmatlari hamda ularning tarkibidagi profilaktika inspektorining asosiy faoliyat yo‘nalishidir.

Profilaktika inspektori MTP negizidagi faoliyat yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha asosiy vazifalari hamda hamkorligini tashkil etish tartibi IIVning tegishli normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab qo‘yilgan. Profilaktika inspektori ma‘muriy hududda terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatini samarali tashkil etish hamda ushbu yo‘nalishda ijobiy natijalarga erishish maqsadida ichki ishlar organlarining boshqa soha xizmatlari bilan hamkorlik qiladi. Profilaktika inspektori terrorizm va diniy ekstremizm profilaktikasi bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini tashkil etish o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, ularning mazkur hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, IIVning normativ-huquqiy hujjatlari talablari asosida tashkil etiladi.

Yuqorida keltirilgan qonunlar va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar qatorida O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2014-yil 1-sentabrdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasini ta‘minlash, profilaktika inspektori va militsiya tayanch punktlari faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi normativ-huquqiy hujjatini keltirib o‘tishimiz mumkin. Ushbu huquqiy asoslarda profilaktika inspektorining ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan huquqbuzarliklar, shu jumladan terrorizm va diniy ekstremizm profilaktikasini amalga oshirishdagi asosiy vakolatlari va faoliyatining yo‘nalishlari, hamkorligi hamda ushbu faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari belgilab berilgan.

Profilaktika inspektori terrorizm va diniy ekstremizm profilaktikasi bo‘yicha ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari, shu jumladan JQ va UJQKB, TB, PPX va JTSB, YOXB, QB, XCHK va FRB, NQ, YHX va boshqalar bilan quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik qiladi.

Profilaktika inspektorining jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish xizmati xodimlari bilan terrorizm va diniy ekstremizmning profilaktikasi bo‘yicha hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan jinoyatlar, jumladan terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

– surishtiruv organlari, sud va tergovdan diniy-ekstremistik va terrorizm bilan bog‘liq jinoyat sodir etib, yashiringan shaxslarni, bedarak yo‘qolganlar qidiruvi hamda shaxsi noma‘lum murdalarni aniqlash;

– hududda sodir etilgan terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni issiq izidan, tez va sifatli ochish, o‘tgan yillarda sodir etilib, ochilmay qolgan jinoyatlarni fosh etish, shuningdek terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq boshqa noxush hodisa va holatlarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash.

Profilaktika inspektorining tergovchilar bilan terrorizm va diniy ekstremizmning profilaktikasi bo'yicha hamkorligining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– tergov-tezkor guruhi rahbarining ko'rsatmasi asosida diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyat sodir etilgan joyni ko'zdan kechirish, ushbu jinoyatlarni «issiq izi»dan ochish bilan hal qiluvchi dastlabki harakatlar va boshqa protsessual tadbirlarni amalga oshirish;

– ochilmay qolgan terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarni ochish bo'yicha hamkorlikdagi ishlarni tashkil etish;

– O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining 35-moddasi 3 va 4-bandlariga muvofiq, shaxsni profilaktik hisobga qo'yish;

– birgalikdagi jinoyatlarning oldini olish va aholining huquqiy madaniyatini oshirib borish bo'yicha huquqiy targ'ibot ishlarini tashkil etish.

Profilaktika inspektorining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori bilan terrorizm va diniy ekstremizmning profilaktikasi bo'yicha hamkorligining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi va huquqiy targ'ibotni olib borishda ularga terrorizm va diniy ekstremizm tushunchasi, sabab va sharoitlari hamda salbiy oqibatlarini tushuntirish;

– voyaga yetmaganlar o'rtasida terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olishga qaratilgan huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirish;

– ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni aniqlash hamda ular bilan yakka tartibda profilaktika ishlari olib borish;

– voyaga yetmaganlarga diniy ta'limotdan saboq berayotgan yoki diniy-ekstremistik va terroristik tashkilotlarga jalb etayotgan, shuningdek voyaga yetmaganlarni tarbiyalash, ta'lim berish, shaxsiy xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i muhofaza qilinishini, nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasini ta'minlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan, lozim darajada bajarmayotgan, ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ular bilan shafqatsiz muomalada

bo'layotgan ota-onalarni yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarni aniqlash hamda ularga nisbatan qonuniy ta'sir choralari qo'llash.

Profilaktika inspektorining patrul-post va jamoat tartibini saqlash xizmati xodimlari bilan terrorizm va diniy ekstremizmning profilaktikasi bo'yicha hamkorligining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– ko'chalar va boshqa jamoat joylarida diniy libosda yurgan hamda diniy ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va cheklash, vakolatlari doirasida umumprofilaktik tadbirlar o'tkazish hamda xizmat olib borish jarayonida fuqarolarga tushuntirish va targ'ibot ishlarini olib borish;

– o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar davomida operativ vaziyatni o'rganish, muqaddam terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyat sodir etganligi uchun sudlanib profilaktik hisobda hamda ma'muriy nazoratda turuvchi, ushbu turdagi jinoyat sodir etishga moyil shaxslar, diniy-ekstremistik oqim a'zolarining xatti-harakatlarini nazorat qilish va ushbu sohadagi huquqbuzarlik sodir etayotgan shaxslarni ushlab va ularning xatti-harakatlariga chek qo'yish;

– diniy-ekstremistik qo'poruvchilik, terrorchilik faoliyati ko'rinishlari, narkotik moddalar, o'qotar qurol-aslahalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish, shuningdek boshqa tajovuzlarni aniqlash va ularning sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish.

Profilaktika inspektorining xorijga chiqish-kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmati xodimlari bilan terrorizm va diniy ekstremizmning profilaktikasi bo'yicha hamkorligining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– hududda istiqomat qiluvchi fuqarolarning pasport tizimi qoidalariga rioya etishlarini ta'minlash;

– chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekistonda bo'lish qoidalariga rioya etishlarini ta'minlash;

– uzoq muddatga boshqa davlatlarga chiqib ketgan O'zbekiston fuqarolarining hisobini yuritish;

– aholining fuqarolik bilan bog'liq qonun hujjatlari talablariga og'ishmay rioya etishlariga xizmat qiladigan huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish.

Profilaktika inspektorining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini nazorat qilish xizmati xodimlari bilan terrorizm va diniy ekstremizmning profilaktikasi bo'yicha hamkorligining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– muqaddam terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyat sodir etganligi uchun axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazosi tayinlangan va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish, bunday toifadagi shaxslarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish;

– ushbu toifa shaxslarning profilaktik hisobini yuritish, ularning takroran jinoyat sodir etishlarining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Profilaktika inspektorining **qo‘riqlash xizmati** xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– ma‘muriy hududda joylashgan obyektlarni qo‘riqlovga olish, fuqarolar xonadonlarining «Texnik qo‘riqlash punkti»ga ulanishini tashkil etish, bu borada tashviqot va targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

– qo‘riqlovga olingan hudud va obyektlarni tekshirish, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf qilish.

Profilaktika inspektorining yong‘in xavfsizligi xizmati xodimlari terrorizm va diniy ekstremizmning profilaktikasi bo‘yicha hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– ma‘muriy hududda fuqarolar tomonidan yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta‘minlashda va yong‘inlar kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida tayyorgarlik ko‘rilayotgan diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog‘liq huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga e‘tibor qaratish hamda bunday holatlar aniqlanganda zudlik bilan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Profilaktika inspektorining ekspert-kriminalistika xizmati xodimlari bilan terrorizm va diniy ekstremizmning profilaktikasi bo‘yicha hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyat sodir bo‘lgan joydagi jinoyat izlari va ashyoviy dalillarning sifatli olinishini ta‘minlash;

– terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyat va ma‘muriy huquqbuzarlik ishlariga aloqador izlar va dalillarni aniqlash, olish hamda ulardan foydalanishni o‘zaro o‘rganib, malakasini oshirib borish.

2-§. Profilaktika inspektorining terrorizm va ekstremizmning profilaktikasi bo'yicha boshqa davlat organlari bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari, huquqiy asoslari

Ma'lumki, O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada barqarorlashtirish bo'yicha qabul qilinayotgan dasturlarning asosiy yo'nalishlaridan biri – bu respublikamizda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni, fuqarolararo, millatlararo, dinlararo ahillik va hamjihatlikni ko'z qorachig'idek asrash va mustahkamlash hisoblanadi.

Bu har bir huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan subyektdan yurt tinchligini asrashga qaratilgan amaliy ishlarni eng ustuvor vazifalardan deb bilishni talab qiladi. Buning uchun esa o'zini yurt taqdiri uchun mas'ul hisoblovchi har bir inson, avvalambor, davlatimiz va jamiyatimiz tinchligiga raxna solishga urinayotgan yovuz kuchlarning manbasi, mazmun-mohiyati haqida aniq tushunchalarga, tasavvurlarga ega bo'lishi va xalqimizni ushbu tahdidlardan ogoh eta bilishi kerak.

O'zbekistonni dunyoviy-ma'rifiy va demokratik taraqqiyot yo'lidan og'dirishga harakat qilayotgan turli aqidaparast va terroristik guruh a'zolari irodasi bo'sh, bilimlari sayoz kishilarni, ayniqsa yoshlarni o'z ta'sir doiralariга tortishga urinmoqda. Mutaassib oqim a'zolarining bosh maqsadi, «Jihad», «Hijrat», «Shahidlik» kabi diniy tushunchalarni soxta talqin qilish orqali yoshlarimizni oilasi va yaqinlarining ta'siridan chiqarish, o'qish yoki ishidan ajratib olish hamda ularni qurolli to'qnashuvlar ketayotgan Afg'oniston, Pokiston, Suriya, Ukraina kabi mamlakatlarga jo'natib, manqurt, jangari yoki «Tirik bomba»ga aylantirishdan iborat.

Jahonda bo'layotgan diniy ekstremizm bilan bog'liq bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Islom ekstremistlari va fundamentalistlarining ta'siri kuchayib borishi mustaqillikni qo'lga kiritib, o'zining tanlagan yo'lidan og'ishmay olg'a borayotgan O'zbekiston va unga qo'shni mamlakatlar uchun xavf tug'diradi.

Islom ekstremizmining asosini tashkil etuvchi jangari tashkilot va uyushmalar Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Masalan, Suriyada – «Musulmon birodarlar», «Jangovar avangard», «Islom ozodlik harakati», «Muhammad qanotlari», «Olloh askarlari»; Marokashda – «Islom avangardi»; Tunisda – «Islom oriyentasiyasi» harakati, «Sho'ro» islom partiyasi, «Islom ozodlik partiyasi», «Islom avangardi»; Misrda –

«Islom ozodlik partiyasi», «Islom guruhlari», «Muhammad yoshlari», «Muqaddas urush» tashkiloti, «Yangi muqaddas urush»; Sudanda – «Islom respublikasi partiyasi»; Saudiya Arabistonida – «Zahmat chekkanlar Husayn qo‘mitasi» kabi tashkilotlar mavjud. Mazkur tashkilotlarning noqonuniy faoliyati mustaqil O‘zbekistonning bir qator qonunlari, jumladan, Konstitutsiyamizning 57-moddasida konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlilik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma‘naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi deb mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekistonda dinga bo‘lgan munosabat 1992-yili 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida olib boriladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida mamlakat fuqarolarining vijdon erkinligi huquqi shunday bayon qilingan: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlar majburan singdirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi». Shuningdek, Konstitutsiyamizning 61-moddasida diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi.

Bugungi kunda hududiy profilaktika inspektorlari fuqarolarning vijdon erkinligini ta‘minlashda, shuningdek ularning turli yot g‘oyalar girdobiga tushib qolishning oldini olish, terroristik va diniy-ekstremistik tashkilotlarning faoliyat yuritishining oldini olish, ularning faoliyatiga keskin zarba berish bo‘yicha davlat organlari va ularning muassasalari, jumladan sud, prokuratura, bojxona, sog‘liqni saqlash, milliy xavfsizlik xizmati, adliya, favqulodda vaziyatlar hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qiladi.

Profilaktika inspektorlarining **sud** organlari bilan hamkorligi quyidagicha:

– diniy ekstremizm jinoyatini sodir etib jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar haqidagi ma‘lumotlarni olish;

– diniy ekstremizm bo‘yicha jinoiy ish qo‘zg‘atilgan taqdirda aybdor va guvohlarni sudda ishtirok etishini ta‘minlash;

– diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoiy xatti-harakat natijasida yetkazilgan moddiy zararni qoplashga doir qonunlarning ijrosini ta‘minlashda ishtirok etish;

– MJtKning 240–241-moddalarida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va hal etish jarayonida yordam ko‘rsatish;

– O‘zbekiston Respublikasi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining 35 va 36-moddalariga muvofiq shaxsni profilaktik hisobga qo‘yish.

Profilaktika inspektorlarining **prokuratura** organlari bilan hamkorligi quyidagilardan iborat:

– hududda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq huquqbuzarlik, jinoyat, boshqa noxush hodisa va holatlarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishda o‘zaro amaliy yordam ko‘rsatish;

– terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq sodir etilgan jinoyatlarni, ayniqsa ularning prokuratura organlari tergoviga tegishlilarini fosh etish, shuningdek surishtiruv ishlarini olib borish bo‘yicha alohida topshiriqlarni bajarish;

– terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olishga qaratilgan aholining huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarda ishtirok etish.

Profilaktika inspektorlarining **milliy xavfsizlik** xizmati xodimlari bilan hamkorligi quyidagicha:

– milliy xavfsizlikka tahdid soladigan illatlarning, jumladan, terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf qilish choralari ko‘rish hamda bu borada birgalikda huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish;

– tinchlik va xavfsizlikka qarshi huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarning hisobini yuritish, shuningdek muqaddam shunday jinoyatlarni sodir etgan shaxslar bilan yakka tartibdagi va maxsus profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda yordam ko‘rsatish;

– hududda sodir etilgan tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlarni fosh etish, shuningdek surishtiruv ishlarini olib borish bo‘yicha alohida topshiriqlarni bajarish.

Profilaktika inspektorining **adliya organlari** xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari:

– terrorizm va diniy ekstremizm huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan ushbu toifa huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

– jamiyatda terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi aholining huquqiy ongini, huquqiy madaniyatini yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibot bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish;

– terrorizm va diniy ekstremizm huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi qonun ijrosini ta‘minlash va ijodkorlik faoliyatida ishtirok etish.

Profilaktika inspektorlarining **bojxona organlari** xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagicha:

– bojxona chegarasi va unga tutash hududlarda terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq huquqbuzarlik, jinoyat va boshqa salbiy hodisalarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni bartaraf qilishda ko‘maklashish;

– bojxona chegarasi va unga tutash hududlarda sodir etilgan MJtKning 240, 241-moddalarida nazarda tutilgan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va hal etish, shuningdek sodir etilgan terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni «issiq izi»dan ochish, shu maqsadda surishtiruv, tezkor-qidiruv tadbirlarini olib borishda ishtirok etish.

Profilaktika inspektorining hududiy **mudofaa organlari** xodimlari o‘rtasidagi hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– aholini, jumladan voyaga yetmaganlar va yoshlarni ma‘naviy-axloqiy hamda harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularni davlatni terrorizm va diniy ekstremizm xurujidan himoya qilishga axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorlash ishlarini amalga oshirishda ko‘maklashish.

Profilaktika inspektorlarining **ta‘limni boshqarish organlari va ta‘lim muassasalari** xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagicha:

– terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olish maqsadida voyaga yetmaganlar va yoshlarning umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda ishtirok etish;

– ta‘lim oluvchilar, ularning ota-onasi yoki ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘rtasida terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

– ta’lim oluvchilar orasida diniy ekstremizmga moyil bo’lgan shaxslarni aniqlash hamda ularga nisbatan ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko‘rishda yordam ko‘rsatish;

– voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarni birgalikda amalga oshirish.

Profilaktika inspektorlarining **mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari** xodimlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– terrorizm va diniy ekstremizmning oldini olish maqsadida aholining ijtimoiy-huquqiy yordamga muhtoj qatlamlarini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish;

– ilgari terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyat sodir etganligi uchun jazoni ijro etish muassasalaridan jazoni o‘tab qaytgan, shuningdek ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarga hukm qilinganlarni ish bilan ta’minlashga yordam berish.

Profilaktika inspektorlarining hududiy **FVV xodimlari** bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagicha:

– diniy-ekstremistik va terroristik tashkilot a’zolarining qanday favqulodda vaziyatlarni vujudga keltirishini aniqlash;

– diniy-ekstremistik va terroristik harakatlar natijasida yuzaga kelgan favqulodda holatlarning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Yuqoridagi keltirilgan davlat organlari va ularning muassasalari bilan profilaktika inspektorining terrorizm va diniy ekstremizmning profilaktikasi bo‘yicha hamkorligi nafaqat bugungi kun davr talabi bo‘libgina qolmasdan, balki ushbu yo‘nalishda samarali natijalarga erishishning ishonchli va to‘g‘ri yo‘lidir desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

3-§. Profilaktika inspektorining terrorizm va diniy ekstremizm profilaktikasi bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda nodavlat, notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy asoslari

O‘zbekiston o‘z mustaqilligi va suverenitetini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, jamiyatda barqarorlikni ta’minlash, fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini asrashga hal qiluvchi vazifalardan biri sifatida qarab kelinadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-aprelda «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolar va ularning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faolligini oshirish, aholining o‘zaro hamjihatligini kuchaytirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklarni profilaktikasini amalga oshirish, qolaversa ushbu sohada huquqni muhofaza qilish organlari, jumladan ichki ishlar organlari hamda uning tarkibiy xizmati bo‘lgan profilaktika xizmatlari va profilaktika inspektori bilan hamkorligini yanada takomillashtirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining qabul qilinishi va uning 21-moddasi bevosita har qanday turdagi huquqbuzarliklar, shu jumladan terrorizm va diniy ekstremizm profilaktikasini amalga oshirishda ishtirok etishi qonuniy asosga ega bo‘ldi. Aynan profilaktika inspektori-ning terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi va hamkorligining asosiy yo‘nalishlari IIVning 2014-yil 1-sentabrdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasini ta‘minlash, profilaktika inspektori va militsiya tayanch punktlarining faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi normativ-huquqiy hujjatida belgilab berilganligi mazkur sohada fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda nodavlat, notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi bugungi kunga qadar yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etishga asos bo‘ldi.

Shaxs, jamiyat va davlatning terrorizm va diniy ekstremizmdan xavfsizligini ta‘minlash, davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlash va ushbu yo‘nalishdagi profilaktika inspektorining faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda profilaktika inspektori va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamkorlikdagi faoliyati tegishli qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar asosida muayyan bir nuqtaga yo‘naltirildi va muvofiqlashtirildi.

Hududiy profilaktika inspektori terrorizm va diniy ekstremizm profilaktikasi bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat, notijorat tashkilotlari bilan turli yo‘nalishlarda hamkorlik qiladi.

Profilaktika inspektorining **fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari** bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– aholi, eng avvalo yoshlar orasida sogʻlom turmush tarzini qaror top-tirishga qaratilgan tadbirlar, huquqiy targʻibot ishlarini olib borish orqali ularda gʻoyaviy immunitetni shakllantirish;

– farzandlarini nazoratsiz qoldirganligi oqibatida ularning diniy-ekstremistik oqimlarga kirib qolish yoki diniy-ekstremistik oqimlarga jalb etuvchi ota-onalar yoki boshqa shaxslarning xulq-atvori, qilmishi, turmush tarzi va huquqbuzarliklarning profilaktikasi boʻyicha chora-tadbirlarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish;

– vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini taʼminlash;

– fuqarolarning diniy eʼtiqod erkinligi huquqiga rioya etilishini taʼminlash;

– roʻyxatdan oʻtmagan diniy tashkilotlar faoliyat koʻrsatishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– diniy ekstremizm profilaktikasini amalga oshirish, diniy qarashlarni majburan singdirishga yoʻl qoʻymaslik chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– diniy ekstremizm huquqbuzarligining sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish yuzasidan birgalikda chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– fuqarolarning diniy eʼtiqod erkinligiga boʻlgan huquqlariga rioya etilishini taʼminlash, diniy qarashlarni majburlab singdirishga yoʻl qoʻymaslik chora-tadbirlarini koʻrish;

– ilgari terrorizm va diniy ekstremizm bilan bogʻliq jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etish bilan bogʻliq boʻlmagan jazo tayinlangan, shartli hukm qilingan, jazoni ijro etish muassasalaridan shartli ozod etilgan, maʼmuriy nazorat oʻrnatilgan, profilaktik hisobda turgan va boshqa shu kabi shaxslarning turmush tarzini nazorat qilish, ular bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borish;

– mahallada xavfsizlikni taʼminlash maqsadida xonadonlarga kirib chiqib, fuqarolarning ayniqsa diniy ekstremizm oqim aʼzolarining oilaviy turmush tarzini oʻrganish va mavjud muammolarni tegishliligi boʻyicha hal etish choralarni koʻrish;

– fuqarolarga pasport tizimi qoidasiga amal qilgan holda yashashlari shartligi, doimiy yoki vaqtinchalik roʻyxatdan oʻtmasdan yashashlariga yoʻl qoʻymaslik, xonadonlarini noqonuniy ravishda ijaraga bermaslik yuzasidan tushuntirishlar olib borish;

– ilgari terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyati uchun sudlangan profilaktik hisobda turgan shaxslarga mahalla faollari va jamoatchilik vakillaridan murabbiylar biriktirish, ularni keng jalb etgan holda tarbiyaviy ta’sir choralari ko‘rish;

– ma’muriy hududda istiqomat qiluvchi fuqarolarning uzoq muddatga chet elga chiqishlari va qaytib kelishlarining hisobini yuritishda ko‘maklashish;

– jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish, qidiruvdakilarni aniqlash, fuqarolarni ogohlikka chaqirish, ularni turli xil diniy-ekstremistik va terroristik tajovuzlardan himoyalaniş usullari bilan tanishtirish, shuningdek zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat qoidalariga rioya etgan holda himoyalaniş yo‘llarini o‘rgatish bo‘yicha tadbirlarini birgalikda amalga oshirish;

– vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog‘liq boshqa masalalarni ko‘rib chiqish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 7-oktabrdagi «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 274-sonli qaroriga asosan profilaktika inspektori terrorizm va diniy ekstremizm profilaktikasida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qoshidagi jamoat tuzilmasi – «Diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchi» hamda komissiyalar – «Fuqarolar yig‘inining ma’rifat va ma’naviyat masalalari bo‘yicha komissiyasi», «Fuqarolar yig‘inining voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiyasi» bilan hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 14-martdagi «Fuqarolar yig‘inining «mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi qaroriga asosan «Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi bilan hamkorlik qiladi.

Profilaktika inspektori **fuqarolar yig‘inlarining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi** bilan terrorizm va diniy ekstremizm profilaktikasini amalga oshirishda quyidagi yo‘nalishda hamkorlik qiladi:

– jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda fuqarolar faolligini oshirishga ko‘maklashish;

– fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqlariga rioya etilishini ta'minlash, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'rish, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalarni ko'rib chiqish bo'yicha fuqarolar yig'ini kengashiga takliflar kiritish;

– nosog'lom diniy g'oyalar ta'siriga tushib qolgan oilalar va fuqarolar yig'ini a'zolari bilan, shuningdek jinoyat sodir etganligi uchun jazo muddatini o'tayotgan yoki o'tab qaytgan shaxslarning oilalari bilan alohida ish olib borish, ularning ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini topishlariga ko'maklashish.

Profilaktika inspektorining **fuqarolar yig'inining ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiyasi** bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– diniy ekstremizm, diniy aqidaparastlik va missionerlikning kelib chiqish sabablarini o'rganish, ularning salbiy oqibatlarini tushuntirish, shuningdek ularning oldini olish, aholini hushyorlik va ogohlikka da'vat etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushunchalari va ma'naviyat targ'ibotiga oid vakolatli davlat organlari qarorlarini ijtimoiy hayotga tatbiq etishda faol qatnashish;

– ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining oldini olish, fuqarolarning diniy e'tiqod erkinligi huquqlariga rioya etilishini ta'minlash, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bilan bog'liq boshqa masalalar bo'yicha fuqarolar yig'ini kengashiga ko'maklashish.

Profilaktika inspektorining **fuqarolar yig'inining voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiyasi** bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– voyaga yetmaganlar va yoshlarning milliy ma'naviyatimizga zid bo'lgan salbiy illatlar hamda turli ekstremistik oqim a'zolari ta'siriga tushib qolishlarining oldini olish, ularga imkon tug'diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

– ichki ishlar organlarining profilaktik hisobida turgan barcha toifadagi shaxslar voyaga yetmagan farzandlarining yashash tarzi va xulq-atvorini muntazam ravishda o'rganib borish.

Profilaktika inspektorining «**Mahalla posboni**» **jamoatchilik tuzilmasi** bilan hamkorligining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

– huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, bu borada aholi bilan turli profilaktika tadbirlari oʻtkazish;

– xalqimiz maʼnaviyatiga zid boʻlgan turli salbiy taʼsirlarning oldini olish yuzasidan tushuntirish ishlarini samarali tashkil etish va oʻtkazishda qatnashish;

– jamiyatda ijtimoiy-maʼnaviy muhitni sogʻlomlashtirishga koʻmaklashish, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda fuqarolar faolligini oshirish ishlarida qatnashish;

– voyaga yetmaganlarni turli huquqbuzarliklar sodir etishga undovchi shaxslarni, yoshlar ongini zaharlab, ularni turli diniy-ekstremistik gʻoyalar taʼsiriga olish maqsadida bunday tashkilotlarga aʼzo boʻlishga daʼvat etuvchi, turli noqonuniy targʻibot va tashviqot ishlari olib boruvchi shaxslarni, oʻsmirlarga qonunga xilof ravishda diniy taʼlim beruvchilarni, konstitutsiyaviy tuzumga qarshi turli axborotlarni tarqatuvchi shaxslarni aniqlash hamda ular bilan profilaktik-tarbiyaviy ishlar olib borish.

Profilaktika inspektori **nodavlat notijorat tashkilotlari** va **fuqarolar** bilan hududda norasmiy faoliyat koʻrsatayotgan diniy hujralar, noqonuniy faoliyat koʻrsatayotgan masjidlar hamda ekstremistik diniy tashviqotlar yurgizuvchi fuqarolar, otin oyilar, imom-xatiblarni aniqlash borasida aholi oʻrtasida turli davlat va nodavlat idoralari, ayniqsa din ishlari boʻyicha qoʻmitalar bilan hamkorlikda keng tushuntirish-targʻibot ishlarini olib borishda hamkorlik qiladi.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI	3
-------------------------	----------

1-mavzu. TERRORIZM VA EKSTREMIZMNING IJTIMOIY XAVFI VA BUGUNGI HOLATI

1-§.Terrorizm va ekstremizmning ijtimoiy xavfi	6
2-§.Terrorizm va diniy ekstremizmning bugungi holati.....	14

2-mavzu. TERRORIZM VA EKSTREMIZMNING SABAB VA SHAROITLARI

1-§.Terrorizm va ekstremizmni vujudga kelishining ma'naviy - g'oyaviy omillari.....	25
2-§.Terrorizm va ekstremizmni vujudga kelishining iqtisodiy-ijtimoiy omillari	38

3-mavzu. TERRORIZM VA EKSTREMIZMNING UMUMIY VA MAXSUS PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH

1-§.Terrorizm va ekstremizmning umumiy va maxsus profilaktikasining o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati, huquqiy asoslari	44
2-§.Terrorizm va ekstremizmning umumiy profilaktikasining asosiy yo'nalishlari, chora-tadbirlari	49
3-§. Terrorizm va ekstremizmning maxsus profilaktikasining asosiy yo'nalishlari, chora-tadbirlari	52

4-mavzu. TERRORIZM VA EKSTREMIZMNING YAKKA TARTIBDAGI VA VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH

1-§.Terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati.....	61
2-§.Terrorizm va ekstremizmning yakka tartibdagi profilaktikasining asosiy yo'nalishlari, chora-tadbirlari.....	66
3-§. Terrorizm va ekstremizmning viktimologik profilaktikasining asosiy yo'nalishlari, chora-tadbirlari.....	71

**5-mavzu. HUDUDIY PROFILAKTIKA
INSPEKTORINING TERRORIZM VA DINIY
EKSTREMIZM PROFILAKTIKASI BO‘YICHA HAMKORLIGI**

1-§. Profilaktika inspektorining terrorizm va ekstremizmning profilaktikasi bo‘yicha ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy asoslari	74
2-§. Profilaktika inspektorining terrorizm va ekstremizmning profilaktikasi bo‘yicha boshqa davlat organlari bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy asoslari	79
3-§. Profilaktika inspektorining terrorizm va diniy ekstremizm profilaktikasi bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda nodavlat, notijorat tashkilotlari va fuqarolar bilan hamkorligining asosiy yo‘nalishlari, huquqiy asoslari	83

MUXTOROV Jo‘rabek Sayidqulovich,
ALIMOV Bahrom Fozilovich,
XO‘JAQULOV Siyovush Baxtiyorovich

TERRORIZM VA EKSTREMIZMGA QARSHI KURASH TAKTIKA VA METODIKASI

**(Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati
mutaxassisligi uchun)**

Ma‘ruzalar kursi

*Muharrir B.Q. Ergashev
Texnik muharrir D.R. Djalilov*

Bosishga ruxsat etildi 10. 12. 2016. Nashriyot hisob tabag‘i 5,6.
Buyurtma № . Adadi 30 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.